

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА-МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ  
МАГИСТРАТУРА БЎЛИМИ**

Қўлёзма ҳуқуқида

УДК: 638

**РАЖАББОВ ХУСАН БОЙМУРОДОВИЧ**

**АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА КОРПОРАТИВ  
БОШҚАРУВНИ ТАКМОМИЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

Мутахассислик: 5A230201 - “Менежмент”

Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган

**ДИССЕРТАЦИЯ**

Илмий раҳбар:

\_\_\_\_\_

**и.ф.д.,проф,Э.Набиев**

**ТОШКЕНТ – 2016**

**Диссертация Тошкент молия институти “Менежмент ва маркетинг  
кафедрасида бажарилган**

**Илмий раҳбар** \_\_\_\_\_ **и.ф.д.,проф, Э.Набиев**

**Кафедра мудири** \_\_\_\_\_ **и.ф.н., доц. Х. Асатуллаев**

**Магистратура бўлими бошлиғи** \_\_\_\_\_ **и.ф.н. , доц. У.Ортиқов**

<b>MUNDARIJA</b>		<b>BET</b>
	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB</b>	<b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI .....</b>	<b>8</b>
1.1.	Aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish, xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari.....	8
1.2.	Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvni tashkil etishning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari .....	16
1.3.	Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning huquqiy-me'yoriy asoslari va xalqaro amaliyoti (modellari).....	23
	I bob bo'yicha xulosa.....	31
<b>II BOB</b>	<b>“O‘ZPAXTASANOAT”AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV VA UNING MOLIYAVIY-IQTISODIY HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>32</b>
2.1.	“O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning tashkiliy tizimi va uning tahlili.....	32
2.2.	Korxonaning moliyaviy –iqtisodiy holati tahlili va uning yangi boshqaruv tizimi bilan bog‘liqligi .....	39
2.3.	Yangi joriy etilgan boshqaruv tizimi samaradorligi tahlili.....	44
	II bob bo'yicha xulosa.....	57
<b>III BOB</b>	<b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI....</b>	<b>59</b>
3.1.	Aksiyadorlik jamiyatida dividendni oqilona joriy tashkil etish yo‘lanishlari.....	59
3.2.	Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo‘llari.....	68
	III bob bo'yicha xulosa.....	73
	<b>XULOSA .....</b>	<b>75</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>79</b>
	<b>ILOVALAR.....</b>	<b>84</b>

## KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqarish tizimini tashkil etishda korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo‘llari, va korporativ boshqaruv standartlarini kiritishda rag‘batlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalarni yanada rivojlantirish dasturidagi vazifalaridan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shunday ekan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish hamda ushbu tizimni takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish muhim vazifalardan biri sanaladi. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “ Korporativ boshqaruv tizimidagi printsip va yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishimiz uning haqiqiy bozor xususiyatlariga ega bo‘lishini ta’minlash va konservativ qarashlardan xalos bo‘lishida katta hissa bo‘ldi.”<sup>1</sup>

Korxonalarni korporativ boshqarish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu tariqa, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavozim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi.

Ana shu klassifikator asosida rahbarlar tarkibi attestatsiyadan o‘tkazildi. Rahbar kadrlarning korporativ boshqaruvning zamonaviy usul va printsiplari, menejment va marketing bo‘yicha bilimlarini baholash ushbu sinovning asosiy maqsadi qilib qo‘yildi. Uning natijalariga ko‘ra, attestatsiya qilingan 721 nafar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. 2016 yil 16 yanvar.

rahbar xodimning yarmi – 49 foizi attestatsiyadan o‘tgan bo‘lsa, ularning har uchinchi attestatsiyadan shartli ravishda o‘tkazilgan, 20 foizi yoki har beshinchi rahbar esa egallab turgan lavozimiga loyiq emas, deb topilgan. Bu raqamlar, tabiiyki, ko‘p narsadan darak beradi va aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini tubdan o‘zgartirishdek muhim ishni o‘z vaqtida boshlaganimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Bo‘shab qolgan rahbarlik lavozimlariga puxta bilimga ega bo‘lgan, zamonaviy menejment va marketing usullarini amalda qo‘llay oladigan yosh mutaxassislar tayinlandi.

Shu borada Germaniyada joylashgan Evropa menejment va texnologiyalar maktabining faol ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarining rahbar xodim va mutaxassislarini tizimli asosda tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ularning zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallashini ta’minlash lozim.

Shuni ham aytish joizki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va hususiyashtirish natijasida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro aloqalarning mustahkamlanib borishi samarali korporativ boshqaruv tizimi kengroq joriy qilinishini talab etmoqda. Demak, aksiyadorlik jamiyatlarida *korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish iqtisodiyotning barcha sohalariga investitsiyalarni jalb etishning muhim omili hisoblanadi*. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida o‘z milliy korporativ boshqaruv modelini shakllantirish jarayoni boshlang‘ich bosqichlarida turganligi sababli korporativ boshqaruvni tadbiq etish va uni kelajakda istiqbolli rivojlantirish, iqtisodiyotning u yoki bu modeli muammolarini hal etishga qaratilishi tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan hisoblanadi

Bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar iqtisodiy negizi keskin o‘zgarib bormoqda. Ko‘p ukladli iqtisodiyot bo‘lganligi uchun turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar amaliy faoliyat olib bormoqdaki, ularning tahlilini olib borish, baholash, ular tuzilmasidagi o‘zgarishlarni keng ilmiy tadqiq etish, ular faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni

o'rganish bu borada ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish o'z navbatida dolzarblik kasb etadi.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti.** Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etish borasidagi munosabatlar va ularni takomillashtirish yo'nalishlari tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot obyekti sifatida "O'z paxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati olingan.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda boshqaruv usullaridan samarali foydalangan holda yirik turdagi korporativ boshqaruv tizimlarini tashkil etish va boshqarish jarayonida qo'l keladigan taklif va tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

- Korporativ tuzilmalar faoliyatida korporativ boshqaruv tizimini asoslab berish;

- Paxta sanoat korxonalarida korporativ boshqaruv jarayoniga optimal innovatsion strategiyalarni joriy etish orqali investitsiyalarni samarali jalb qilish yo'llarin tadqiq etish;

- Korporativ boshqaruvni takomillashtirishning huquqiy asoslari ilmiylikini o'rganish;

- Korporativ boshqaruv tizimida jahon tajribasining maqsadga muvofiq jihatlari ko'rsatib berish;

- Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan amaliy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

- Korxonada mavjud boshqaruv tizimining tashkil etilishi va uni o'ziga xos jihatlari o'rganildi;

- Korxonada samarali dividend siyosatini amalga oshirishning uslubiy asoslari ishlab chiqildi;

**Ilmiy yangiligi:**

- korporativ boshqaruvning instituttsional asoslari ishlab chiqilgan;

- korporativ hamjamiyat mulkiga umumiy egalik (hamegalik) qilish yoki shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni qondirishga qaratilgan sheriklik yoki hamkorlik munosabatlarini o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilgan;

- samarali dividend siyosatini amalga oshirishning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan;

- korporativ boshqaruni tashkil etish va uni tokomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning ilmiy masalalari va farazlari.** Magistrlik dissertatsiyasida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etishning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va xuquqiy me'yoriy asoslari tadqiq qilingan. Bundan tashqari korxonaning moliyaviy iqtisodiy xolati ilmiy jihatdan yondoshilgan xolda taxlil qilingan. Korxonaning korporativ boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida kelajak istiqboli belgilab berilgan.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi(tahlili).** Korporativ boshqaruvga doir masalalar I. Ansoff, U.Batner, D. Yermax, R.Lazer, D. Lorsh, K. Meyr, P. Milgrom, B. Meyn, D. Seyler Mixaylov D.M., D. Tobin, M. Xessel, D. Charxem, A. Shleyfer kabi bir qator xorij olimlarining ilmiy asarlari ko'rib chiqilgan. Ularda korporativ boshqaruvga bag'ishlangan tadqiqotlarning asosiy qismi rivojlangan g'arb mamlakatlari misolida o'rganilgan. Shu jumladan, moliya bozorlari, Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning xuquqlari va vazifalari tadqiq etilgan. Turli xuquqiy tizimlarning korxonaga ta'siri o'rganilgan. Korporativ boshqaruv sifatini baholashning yagona reyting tizimini yaratish to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Korporativ boshqaruv masalalari bilan bir qator o'zbek iqtisodchi olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Jumladan, A.M. Qodirov, Qurbonov X.A D.Suyunov, M.B.Hamidulin, K.Tolipov, M. Bo'taboev, Sh.Boboxo'jaev, Xodiev B.Yu., Berkinov B.B, Zaynutdinov Sh.N kabi mamlakatimiz olimlari va soha mutaxassislari tomonidan o'rganilib, ko'plab ilmiy asarlar chop etilgan . Ular tomonidan korporativ tuzilmalar to'g'risidagi tadqiqotlar(B.B. Berkinov), korporativ munosabatlarning xuquqiy asoslari(S.S. Gulyamov), Korporativ tuzilmalarini tashkil etish va ularni boshqarish(A.A. Xoshimov), Korporativ boshqaruv mexanizmining shakllanishi va rivojlanishining kotseptual asoslari(M.B. Xamidulin), Biznes muxitining rivojlanishiga korporativ boshqaruv

mexanizmini joriy etish masalalari(D.X. Suyunov), Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ boshqaruvining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari(O.M.Mansurov)ga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va monografiya nashrdan chiqarilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Abstrakt-mantiqiy, monografik, hisob-konstruktiv, iqtisodiy-statistik va matematik-modellashtirish singari bir qator statistik taxlil uslublaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalaridan aksionerlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishi, aksiyadorlarning manfaatlari to'laqonli bo'lishi, investitsion jozibadorligi, moliyaviy inqirozga uchramasligi maqsadida korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish va uni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Shuningdek dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlari doirasida foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi:** ilmiy ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat



# **I BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI**

## **1.1. Aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari**

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish tashkil etadi. Uning maqsadi - bozor iqtisodiyotining vujudga kelishi uchun zarur bo‘lgan asosiy sharoitlarni yaratish (xususiy mulk institutini shakillantirish, iqtisodiy va huquqiy bazani hamda ularsiz iqtisodiyotning xususiy sektori faoliyat ko‘rsata olmaydigan institutsional tuzilmalarni barpo etish)dan iborat. Aksiyadorlik jamiyatlari bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining ko‘plab sohaslarida etakchi mavqeni egallagani holda, keng tarqalgan, boshqaruv, kuzatuv va ijro organlari orqali korporativ munosabatlarga faol kirishadigan yuridik shaxslar hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari dastlab XVII asrda Evropada dengiz orqali savdo-sotiq sohasida faoliyat yuritgan mulkdorlar o‘rtasida tashkil etilgan. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir huquqiy normalar ilk bor 1808 yilda Frantsiya savdo kodeksida belgilangan.

Mazkur faoliyatning qonuniy negiziga ko‘ra mamlakatimizda bunday jamiyat yuridik shaxsni ta’ sis etish yoki qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) yo‘li bilan tashkil etilishi mumkin. Jamiyatni ta’ sis etish yo‘li bilan tashkil etish muassislarning qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.<sup>2</sup>

Aksiyadorlik jamiyat yuridik shaxsni ta’ sis etish yoki qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) yo‘li bilan tashkil etilishi mumkin. Jamiyatni ta’ sis etish to‘g‘risidagi qaror ta’ sis yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat bir muassis tomonidan ta’ sis etilgan taqdirda jamiyatni ta’ sis etish haqidagi qaror shu muassis tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi. Jamiyatning muassislari uni tashkil etish to‘g‘risida o‘zaro ta’ sis shartnomasini tuzadilar, shartnomada ularning jamiyatni ta’ sis etishga doir birgalikdagi faoliyatni amalga

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларни ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонун. 2–боб, 9 модда. -Т.26.04.1996

o'shinish tartibi, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori, muassislarning o'rtasida joylashtirilishi lozim bo'lgan aksiyalarning turlari, ular uchun to'lanadigan haqning miqdori va uni to'lash tartibi, muassislarning jamiyatni tashkil etishga doir huquq va majburiyatlari belgilanadi. Jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror muassislarning ovoz berish natijalarini hamda jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash, jamiyatning boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari yuzasidan muassislarning qabul qilgan qarorlarni aks ettirishi kerak.

Jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi va muassis tomonidan jamiyatning aksiyalari haqini to'lash uchun kiritilayotgan qimmatli qog'ozlarning, o'zga mulkiy huquqlarning yoki pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan boshqa huquqlarning pulda ifodalangan bahosini tasdiqlash haqidagi qarorlar muassislarning tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Chet ellik investorlar ishtirokidagi jamiyatni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi qaror davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat muassislari va aksiyadorlarining soni cheklanmaydi.

Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning muassislari (muassisi) deb e'tirof etiladi.

Agar qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat organlari jamiyatning muassislari (aksiyadorlari) bo'lishi mumkin emas.<sup>3</sup>

Jamiyat muassislari jamiyatning tashkil etilishi bilan bog'liq majburiyatlar yuzasidan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilguniga qadar javobgar bo'ladi. Jamiyat muassislarning jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq majburiyatlari yuzasidan

---

<sup>3</sup> "O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" qonun 26.04.1996 y. N 223-I (Yangi tahriri) Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan. O'zR 20.08.2015 y. O'RQ-391-son Qonuni, O'zR 29.12.2015 y. O'RQ-396-son Qonuni.

muassislarning harakatlari keyinchalik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ma'qullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi.

Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ jamiyatning muassisi bo'ladi. Jamiyat muassislari o'rtasida aksiyalarni taqsimlash ta'sis hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'sis yig'ilishi:jamiyatni ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qiladi va uning ustavini tasdiqlaydi;ta'sis etish jarayonida muassislar tomonidan tuzilgan shartnomalarni tasdiqlaydi;muassislar tomonidan aksiyalar haqini to'lash tartibini belgilaydi;chiqariladigan aksiyalarning turlarini va sonini belgilaydi;

jamiyatning kuzatuv kengashini, taftish komissiyasini (taftishchisini) saylaydi;

jamiyatning ijroiya organini tuzadi (saylaydi, tayinlaydi).

Ta'sis yig'ilishida ovoz berish muassislar kiritadigan ulushlarga muvofiq o'tkaziladi. Ta'sis yig'ilishi qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi, bundan ta'sis shartnomasini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlar qabul qilinadigan hollar mustasno bo'lib, buning uchun barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Ta'sis yig'ilishining qarorlari jamiyatning barcha muassislari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Davlat tashkilotini aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirish davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan qaror asosida ta'sis yig'ilishini o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

Bir muassisdan iborat bo'lgan jamiyatda ta'sis yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Ustav jamiyatning ta'sis hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: jamiyatning to'liq (agar bo'lsa qisqartirilgan) firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) va maqsadi;

ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;

jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);

jamiyat boshqaruvining tuzilmasi, jamiyat kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a'zolari soni, bu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Jamiyat ustavida jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan ulushning eng ko'p miqdoriga cheklovlar belgilanishi mumkin.

Davlat tomonidan jamiyatni boshqarishda ishtirok etishga bo'lgan maxsus huquq ("oltin aksiya") joriy etilayotgan jamiyat ustavida davlatning mazkur maxsus huquqdan foydalanishi to'g'risidagi qoidalar ko'rsatilishi kerak.

Jamiyatni tashkil etishning qonunda belgilangan tartibini buzish yoki uning ustavi qonunga muvofiq emasligi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga olib keladi. Jamiyatni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan uni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish muddatlarining buzilishi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan uch oy muddatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi, jamiyatning kuzatuv kengashi, ijroiya organi haqidagi (tegishincha direktori, boshqaruvi, ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi) va taftish komissiyasi (taftishchisi) to'g'risidagi ularning faoliyat tartibini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek jamiyatning mazkur organlari tomonidan qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilovchi nizomlarni tayyorlashi hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlashi shart.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish –bu uning ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik qilish mexanizmi yoki tizim va ular yordamida ishtirokchilar o'z manfaatlarini namoyon qiladigan usullardir. Biroq ushbu tizim mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalarni boshqarishdan farq qiladi, chunki aksiyadorlik jamiyatining mol-mulki ko'pchilik aksiyadorlarning ulushlaridan hosil bo'ladi. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish tizimi jamiyat faoliyatining asosiy vazifalarini hal etishda aksiyadorlarning xohish-istaklari bildirilishini nazarda tutadi. U mulkdorning fikrini bayon etadi va ularning manfaatlarini himoya qiladi<sup>4</sup>.

Aksiyadorlik jamiyati (korporatsiya) investorlar (aksiyadorlar) kapitalini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadigan hamda o'z aksiyadorlari foydasi manfaati

---

<sup>4</sup>Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б. Корпоратив бошқарув, ўқув қўлланма Т.:2010 йил. 128 –б.


yoʻlida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan tijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatida iqtisodiy faoliyatning shart-sharoitlari shaffof boʻlishi, boshqaruvchilar va boshqa ijro etuvchi xodimlarning aksiyadorlar oldida tegishli ravishda hisob berib turishlarini taʼminlash maqsadga muvofiq. Mulkdorlar (aksiyadorlar) ularning aktivlaridan samarali foydalanilishi hamda foyda adolatli taqsimot boʻyicha kafolatga ega boʻlishi zarur. Yaʼni aksiyadorlar boʻsh turgan mablagʻlarini ishlab chiqarishga yoʻnaltirish natijasida maʼlum miqdorda daromad olishi maqsadga muvofiq. Aksiyadorlar qoldiq mulk egalari sifatida oʻz zimmalariga olayotgan tavakkalchilik xatari evaziga muayyan kafolatlangan haq-huquqlarga ega boʻlishlari shart. Mulikka daxldorlik, aksiyalarni oʻtkazib berish huquqi, foydadan oʻz ulushini olish va muhim korporativ qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish huquqlarini shu jumlagi kiritish mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv organi rahbari va ijro tarkibi tanlovini shunday asosda olib borish kerakki, bunda shaxsning malakasi ham, feʼl-atvori ham uning aksiyadorlik jamiyati strategik vazifalarini amalga oshirish boʻyicha bajaradigan ish harakteriga mos boʻlishi lozim. Aksiyadorlik jamiyatining turli toifadagi rahbarlari, etakchi mutaxassislari va xodimlari mehnatini eng yangi texnologiyalarni, shuningdek, hisoblash texnikasini qoʻllash orqali maksimal darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Boshqaruvning oliy va ijro organlari, shuningdek, aksiyadorlik jamiyati menejeri va xodimlari oʻz vazifalarini bajarishida bir-birini amalda takrorlashiga yoʻl qoʻymaslik, ayni chogʻda, ular oʻzaro bir-birini almashtira olishi darajasining yuksakligini taʼminlash muhimdir. Bunda ularni ragʻbatlantirishning ijobiy vositalari (mukofotlash, imtiyozli aksiyalarni ajratish, xorijiy safarlarga malaka oshirishga yuborish va hokazolar)dan faol foydalanish yaxshi samara beradi. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarishdagi tavakkalchilik ustidan nazoratni kuzatuv kengashi aʼzolari tomonidan chuqur anglash darajasi mazkur yoʻnalishda olib borilayotgan ishlarning tarkibiy qismi boʻlib qolishi zarur.

Ushbu masalalarni hal etish uchun aksiyadorlik jamiyatida tavakkalchilik darajasini nazorat qilishda kuzatuv kengashining ahamiyati bayon etilgan qoidalarni,

korporativ boshqaruv darajasini baholash mezonlarini, korporativ boshqaruvni samarali olib borishga qaratilgan ichki hujjatlarni hamda korporativ boshqaruv tizimida tanglik vaziyatlari vujudga kelganda ko‘riladigan chora-tadbirlar taktikasini ishlab chiqish va tartibga solish talab etiladi. Bu borada aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etishda ularning joylashtirilish usullaridan samarali foydalanishni yuzaga keltiradi (1.1.1-chizma).



#### 1.1.1-chizma. Aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil qilishdagi joylashtirish usullari<sup>5</sup>

Ta'kidlab o'tish kerakki, korporatsiya tushunchasi hozirgi sharoitlarda yana bir o'ziga xos jihatni kasb etmoqda. Undagi bir nechta yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan xo'jalik subyektini belgilash uchun foydalanilib, ularning har birini boshqa mulkiy munosabatlar, birgalikda biznes yuritish, umumiy maqsadlar va manfaatlar, umumiy tashkiliy struktura bilan bog'liq mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shunday qilib, O'zbekistonad korporatsiya mustaqil aksiyadorlik jamiyati bo'lishi mumkin.

Xo'jalik faoliyatini korporativ tashkil qilishning keng imkoniyatlari ularning afzalliklaridan foydalanishga asoslanib, korporatsiyalar yaratish variantlaridan foydalangan holda firmalararo munosabatlarni modellashtirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz:


<sup>5</sup>Matnga muvofiq muallif tomonidan tuzildi.

1. Aksiyalar chiqarish orqali pul mablagʻlari jalb qilish qobiliyati cheklanmagan sonli investorlarning mablagʻlarini jamlash imkonini va bu investorlarga jamiyatni boshqarishda ishtirok etishda maʼlum bir tanlov huquqini beradi.

2. Boshqariluvchanlik muammosini hal etilishi engillashadi. Tashiliy rasmiylashtirishning tugallanganligi, vakolatlar va javobgarliklarni aniqlashda reglamentga rioya qilish nazorat funksiyalarini aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari oʻrtasida taqsimlash imkonini beradi, bu esa boshqaruv jarayonini professionallashtirish imkoniyatini anglatadi.

3. Aksiyadorlar tarkibiga kirish va chiqishning soddalashtirilgan tarkibi manfaatdor shaxslarning oʻrnini almashtirish uchun keng imkoniyatlar va mos ravishda, investitsiya taklifi dinamikasi yuqori boʻlgan sharoitlarda yuqori moslashuvchanlikni taʼminlaydi.

4. Cheklangan javobgarlik tamoyili risklarni kamaytirishga imkon beradi. Cheklangan javobgarlik tamoyilining qoʻllanilishi risklarni aksiyadorlar va boshqaruvchilar oʻrtasida taqsimlash orqali yirik korporatsiyalar yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi<sup>6</sup>.



**1.1.2-chizma Korporativ muxit<sup>7</sup>**

<sup>6</sup>Ходиев Б.Ю., БеркиновБ.Б. Корпоратив бошқарув, ўқув қўлланма Т.:2010 йил, 22-б


<sup>7</sup> Б.Ю.Ходийев, Р.Х.Карлибайева, Н.И.Акрамова 10 бет Тошкент –2011.й Маъруза И.И.Корпоративный менеджмент Омга –Л. 2010 -41. б

Tadbirkorlik korporatsiyalari foyda olish uchun yaratiladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- AQShda korporatsiyalar faqat aksiyadorlik kapitali asosida tuziladi;
- Evropada ma'suliyati cheklangan jamiyat, shirkatlar, kooperativlar, ochiq aksioner jamiyatlari, yopiq aksionerlik jamiyatlari.

Tadbirkorlik korporatsiyasi sifatida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- alohida tijorat tashkiloti;
- integratsiyalangan korporativ tuzilma (kontsern, xolding va boshqalar).



## 1.2 - rasm .O‘zbekiston milliy korporativ boshqaruv modeli tuzilmasi<sup>8</sup>

O‘zbekiston Respublikasi 1996 yili 26 aprelda qabul qilingan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga binoan O‘zbekiston milliy korporativ boshqaruv modeli tuzilmasi quyidagi rasmda izohlanadi(1.1.2-chizma). Mulkchilikning aksiyadorlik shaklini korporativ boshqarish usullarini joriy etishda ko‘rsatib o‘tilgan jihatlarning mavjudligi korporativ hamjamiyatning turli ishtirokchilari manfaatlarining uyg‘unligini va bozor talablari asosida aksiyadorlik korxonalarini rivojlantirishning

<sup>8</sup> B.Yu.Hodiev, R.X.Karlibayeva, N.I.Akramova. Toshkent – 2011. 15 b



raqobatbardosh strategiyalaridan foydalanishni taqozo etuvchi sifat jihatdan yangi menejmentni shakllantirishni talab etadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari o'z aksiyadorlari bilan yollangan menejrlar o'rtasida o'zaro mafaatlari mosligi muammosi yuzaga keladi. Bu o'z zimmasiga aksiyadorlik kapitalidan samarali foydalanish, foyda darajasini oshirib borish majburiyatini olgan menejrlarning korxonani samarali boshqarishini ta'minlashi va yollangan menejrlarni aksiyadorlar manfaatlarini inkor etib o'z shaxsiy manfaatlari yoki korxonani malakasiz boshqarish yo'liga o'tish bilan tavsiflanadi va shu bosqichga ixtilofli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ana shu manfaatlarning mos kelishini ta'minlash aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi.

## **1.2. Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvni tashkil etishning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlay oladigan ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shunday vazifalardan biri korxonlarda korporativ boshqaruvni shakllantirishda iborat edi "Korporativ boshqaruvning asosiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining faoliyatga jalb etilgan turli shaxslar mafaatlari muvozanatini o'rnatishdan iborat."<sup>9</sup>

**Korporatsiya (lotincha *corporatio* – birlashish)** – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil subyektini – huquqiy shaxsni tashkil qilgan jismoniy va huquqiy shaxslar birlashmasidir.

Korporativ boshqaruvning maqsadi aksiyadorlik jamiyatiga jalb qilingan turli shaxslar guruhlari (aksiyadorlar, menejmlar, mehnat shartnomasi a'zolari,

---

<sup>9</sup>Хашимов А.А Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш: Иқтисод фанлари доктори илмий даражаси учун дисс.иши-Т.: 2007. Б-338.

mahalliy hokimiyat organlari, kredit beruvchi banklar, etkazib beruvchilar va h.k) manfaatlarining o‘zaro uyg‘unligiga rioya etishdan iborat.

Ma’lumki, korporativ boshqaruvning vujudga kelishi mulkka egalik qilish va uni bevosita boshqarish vazifalarining bir-biridan ajralib chiqishiga bog‘liq. Bunday ajralish natijasida aksiyadorlik jamiyati faoliyatini bevosita boshqaruvchi yollanma rahbar (menejer)ning ahamiyati oshadi. Pirovardida o‘zaro munosabatlarda ishtirok etuvchi turli guruhlar paydo bo‘lib, ularning har biri o‘z manfaatlarini ko‘zlab ish yuritadi. Shu munosabat bilan aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning bosh vazifasi jamiyatning barcha aktivlaridan samarali foydalanishdan iborat bo‘ladi.

Korporativ boshqaruvning murakkab va ziddiyatli tabiatini e’tiborga olib, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari uchun korporativ hamjamiyatining har xil qatnashchilari bilan uning faoliyatini boshqaruvchi turli organlari o‘rtasidagi kelishuvlar va ziddiyatlarni hal etish mexanizmini shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan korporativ xatti-harakat mexanizmini tartibga soluvchi turli ko‘rinishdagi kodekslar, xususan, aksiyadorlar manfaatlarini ta’minlash masalalari, boshqaruvchining aksiyadorlik jamiyatining umumiy yig‘ilishi oldida hisob berishi masalalarini ifodalovchi qoidalar ishlab chiqilishi zarur.

Aksiyadork jamiyatlari korporativ boshqaruvni tashkil etishda kuzatuv kengashining funksiyalari qo‘yidagicha:

- har bir jamiyatda kengash maqsadi, vazifasi, vakolati va javobgarligi ta’riflangan hamda o‘ziga quyidagi asosiy qoidalarni olgan xujjatning bo‘lishi tavsiya qilinadi:

- kengashning o‘zak g‘oyasi – jamiyat va uning faoliyati bilan ishbilarmonlik va boshqa o‘zaro munosabatlardan holi, mulk egalari (aksiyadorlar) va boshqa manfaatdor shaxslar nomidan nazorat ishlarini olib boruvchi shaxslar guruhining shakllanishidir.

- kengashning missiyasi aksiyadorlar qo‘ygan ulush qiymatining maksimal o‘stirilishidir. Kengash faoliyati asosida aksiyadorlar maqsadlari va manfaatlari yotishi zarur.

- Kengashning vazifasiga aksiyadorlar nomidan Jamiyat faoliyatiga rahbarlik qilish va uning oliy menejerlari (Boshqaruv, Bosh direktor) faoliyatini nazorat qilish kiradi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo‘lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta‘minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratadi<sup>10</sup>.

Shularndan kelib chiqib, quyidagilar korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:

- xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chet el kapitali ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

- eski bo‘linmalar va lavozimlarni tugatish, zamonaviy xalqaro standartlar va bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi bo‘linma va lavozimlarni joriy etishni inobatga olgan holda, aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish aksiyadorlik jamiyatlarini strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta‘minlashda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar rolini oshirish;

- aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatlari samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;

---

<sup>10</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2015 yil 24 aprel’ P F -4720.

- korporativ boshqaruvning ilg'or uslublarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar, jumladan, uzoq muddatli istiqbolda rivojlanish strategiyasi va vazifalari, ichki nazorat tizimlari va ijro organining aksiyadorlar hamda investorlar bilan samarali o'zaro hamkorlik mexanizmlarini belgilash; aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ko'lami, tarmoq xususiyatlari va yo'nalishlarini inobatga olgan holda, namunaviy tashkiliy tuzilmani joriy qilish;

- xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

- chet el kapitali ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

- eski bo'linmalar va lavozimlarni tugatish, zamonaviy xalqaro standartlar va bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi bo'linma va lavozimlarni joriy etishni inobatga olgan holda, aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish;

- aksiyadorlik jamiyatlarini strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta'minlashda, aksiyadorlar rolini oshirish;

- yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida boshqaruv xodimlarini tayyorlash va ularning kasb darajasini oshirish, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlarida rahbarlik lavozimlariga chet ellik yuqori malakali menejerlarni jalb qilish.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri davlat tasarrufida bo'lgan korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish orqali xususiylashtirish va yangi iqtisodiy munosabatlarga xos boshqaruv mexanizmini yaratishdir. Ma'lumki, korporativ - boshqaruv bozor iqtisodiyoti qonunlari, talab va takliflari asosida tashkil etiladigan boshqaruv usullaridan biridir.

Ishlab chiqarish darajasini korporativ asosda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi uchun yangi, o'rganilmagan muammo bo'lib uni o'rganishda xorijiy

davlatlarda korporativ boshqaruvni tashkil etish, uning jabhalari va mexanizmlarini, korporatsiyalar tashkiliy tarkiblari, boshqaruv texnologiyasi, strategik rivojlantirish va korporativ aksiyadorlar mablag'larini boshqarishni tashkil etish sohalaridagi mavjud tajribalaridan keng foydalanishimiz lozim.

Korporativ boshqaruvning samarali natijasi faqat boshqaruvni yaxshi tashkil qilinishi bilangina ta'minlanmaydi. Korporativ boshqaruvning samarali bo'lishi, milliy iqtisodiyotning hozirgi holatiga, institutsional boshqaruvni tashkil etish darajasiga iqtisodiy va ijtimoiy holatdan kelib chiqqan holda takomillashtirilishiga davlatni bu yo'nalishda tutgan siyosatiga va menejerlarning boshqaruvni tashkil etish salohiyatlariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Korporativ boshqaruvning murakkab va ziddiyatli tabiatini e'tiborga olib, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari uchun korporativ hamjamiyatining har xil qatnashchilari bilan uning faoliyatini boshqaruvchi turli organlari o'rtasidagi kelishuvlar va ziddiyatlarni hal etish mexanizmini shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan korporativ xatti-harakat mexanizmini tartibga soluvchi turli ko'rinishdagi kodekslar, xususan, aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash masalalari, boshqaruvchining aksiyadorlik jamiyatining umumiy yig'ilishi oldida hisob berishi masalalarini ifodalovchi qoidalar ishlab chiqilishi zarur. Aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga ana shunday kodekslarning tatbiq etilishi xorijda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, davlat organlari hamda nohukumat tashkilotlar tomonidan korporativ xatti-harakat kodekslari, korporativ axloq va ishchanlik aloqalari masalalari yuzasidan uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Iqtisodiyotning barqaror, rivojlanishini taminlash faqat rivojlangan, davr talabiga javob bera oladigan, yuqori darajada madaniylashgan boshqaruvga asoslangan korporativ munosabatlarning shakllanishiga bog'liq. Shuningdek milliy mentalitetga asoslangan, madaniylashgan korporativ munosabatlarni shakllantirish sobiq totalitar, markazlashtirilgan byurokratik boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirish va ishlab chiqarish faoliyatlarida qatnashayotgan mehnat resurslarini, mehnat qilish darajalarini, ularning ixtisosligi darajalarini e'tiborga olgan holda ijtimoiy himoya

qilishni amalga oshirilishi bilan xam bog'likdir. Korporativ mulkchilik, korporativ boshqaruvning rivojlanishi korporativ aksiyalar narxlariga ham ta'luqlidir.

Korporativ boshqaruvning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- samarali tahlil, joriy va strategik boshqaruv mexanizmini yaratish va uning ishini ta'minlash, boshqaruv qarorlarni qabul qilish va jamiyat faoliyati ustidan nazoratni o'rnatish;

- barcha aksiyadorlar (shu jumladan mayda va xorijiy aksiyadorlar)ga adolatli munosabatni hamda barcha aksiyadorlarning ular xuquqlari buzilganda samarali himoya usullaridan foydalanishi imoniyatlarini ta'minlash;

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari, menejerlari, xodimlari, mijozlari, xamkorlari va etkazib beruvchilari, ya'ni manfaatdor shaxslari. davlat va jamiyat manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali faoliyat olib boradi. **Korporativ birlashmalar turlari:** xo'jalik uyushmasi, kontsern, konsorsium, konglomerat, trest, xolding.

Korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanishini bir nechta bosqichga bo'lish mumkin:

1. XVII asrda Ost - Ind (East India Company) kompaniyasi 24 a'zodan iborat bo'lgan direktorlar kengashini tashkil qildi. Birinchi marta mulkchilik va boshqaruv vazifalari bo'lib olindi.

2. 1776 yili Adam Smit o'zining "Halqlar boyligining sabablari va tabiatlari xaqidagi tadqiqotlar" asarida ta'kidlaydiki: "Tashlab qo'yilgan mulklar boshqaruv uchun muammolarni keltirib chiqaradi", ya'ni boshqaruv va menejerlarni nazorat qilish uchun salbiy mexanizm hisoblanadi.

3. 1844 yilda birinchi marta aksionerlik jamiyatlari haqida qonun qabul qilindi. Qonunchilikka mulkchilikning yangi javobgarligi shaklidagi majburiyatlari joriy etildi.

4. 1931 yilda A. Berli va G. Minzlar «Zamanoviy korporatsiya va xususiy mulkdor» nomli maqolasini nashrdan chiqardi (AQSh). Unda birinchi marta mulkchilik vazifalarini nazorat vazifalaridan to'la to'kis farqi ajratib berildi.

5. 1933-1934 yillarda AQShda qimmatbaho qog'ozlar haqida qonun qabul qilindi, 1933yilda qabul qilingan ushbu qonun fond bozorini tartibga soldi. Ushbu

bosqichda “Qimmatbaho qog‘ozlar va birjalar to‘g‘risida”gi (1934y) aktga asosan axborotlarning ochiq berilishi imkoni mavjud bo‘ldi va ushbu yili qonunlarni bir tartibda nazorat qiladigan, qimmatbaho qog‘ozlar bozori va birjalar faoliyati bo‘yicha komissiya tuzildi.

6. 1968 yilda Evropa Ittifoqi «Kompaniyalar to‘g‘risida» qonun qabul qildi.

7. 1990 - yillarning boshida – tadbirkorlik imperatsiyasi inqirozga uchradi. Buyuk Britaniyada kelishmovchiliklar yuzaga keldi: bir qator kompaniyalar (Polly Peck, BCCI, Maxwell), aksiyadorlarni aldash bilan shug‘ullanganliklari korporativ boshqaruvning amaliyotda investorlarni himoyalashni takomillashtirish kerakligini ko‘rsatdi.

8. 1992 yil. Kedberi qo‘mitasi birinchi marta korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo‘yicha kodeksni nashr etdi. (Buyuk Britaniya). 1993 yildan boshlab Buyuk Britaniya fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeks qanday bajarilayotganligi haqida hisobot bera boshladi.<sup>11</sup>

9. 1992 – 2003 yillarda korporativ boshqaruv bo‘yicha qator ma‘ruzalar qabul qilindi.

Aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv organi rahbari va ijro tarkibi tanlovini shunday asosda olib borish kerakki, bunda shaxsning malakasi ham, fe‘l - atvori ham uning aksiyadorlik jamiyati strategik vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha bajaradigan ish harakteriga mos bo‘lishi lozim. Aksiyadorlik jamiyatining turli toifadagi rahbarlari, etakchi mutaxassislari va xodimlari mehnatini eng yangi texnologiyalarni, shuningdek, hisoblash texnikasini qo‘llash orqali maksimal darajada mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Boshqaruvning oliy va ijro organlari, shuningdek, aksiyadorlik jamiyati menejeri va xodimlari o‘z vazifalarini bajarishida bir-birini amalda takrorlashiga yo‘l qo‘ymaslik, ayni chog‘da, ular o‘zaro bir-birini almashtira olishi darajasining yuksakligini ta‘minlash muhimdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida xo‘jalik yuritish

---

<sup>11</sup> Хессель, Мейерс. Корпоративное управление. Владельцы, директора и наемные работники акционерного общества. -М.: Партнер, 2004. -49 с.

amaliyotida korporativ boshqaruvning keng tarqalganligi u yoki bu mamlakatning ochiqlik hamda rivojlanish darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

### **1.3. Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning huquqiy-me'yoriy asoslari va xalqaro amaliyoti (modellari)**

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish masalalari Fuqarolik kodeksi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi va boshqa qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Korporativ munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini obyektiv hisobga olish, ularni to'g'ri muvofiqlashtirish va "umumiy mahraj"ga keltirish lozim. Bunda, korporatsiya – bu o'z maqomiga, maqsadlari va vazifalariga ega bo'lgan yuridik shaxs ekanini va ular korporatsiya faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslar va bu shaxslar guruhlarining holatiga har tomonlama mos kelavermasligini unutmaslik darkor.

Bank, investitsiya va sug'urta faoliyati sohalarida, shuningdek davlat tashkilotlarini xususiylashtirishda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etishning va ular huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

**Mamlakat qonunchiligida "korporatsiya" tushunchasi** yuridik jihatdan mustahkamlab quyilmaganligi sababli bu tushunchani talqin qilishda ikki xil ma'no kuzatiladi. Ayrim belgilar bo'yicha korporatsiyalar qatoriga tijorat tashkilotlari hisoblangan va a'zolikka asoslangan barcha xo'jalik subyektlari, boshqa belgilar bo'yicha esa – faqat aksiyadorlik jamiyatlari kiritiladi.<sup>12</sup>

---

<sup>12</sup> Суянов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. - Т.: Академия, 2007. -319 б.



Chunonchi rivojlangan mamlakatlar qonunlari korporatsiya maqomini muayyan tashkiliy tuzilmaga, huquq va majburiyatlarga ega va haqiqiy mavjud bo'lgan yuridik shaxs sifatida belgilab bir vaqtning o'zida korporativ hamjamiyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishning asosiy me'yorlari va mexanizmlarini ham belgilab beradi.

Korporativ boshqaruvning mexanizmlari davlat tartibga solish organlari, sud organlari va ishbilarmonlar doiralarida ishlab chiqilgan ma'lum bir qoida, me'yor va andozalari asosi va doirasida ishlaydi. Ushbu qoida, me'yor va andozalarning majmuasi korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini tashkil qiladi.

Korporativ boshqaruvning me'yorlari quydagilarni o'z ichiga oladi.

I. Maqomiy huquqning me'yor va qoidalari – davlat tomonidan ishlab chiqarilib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga soladi (markazlashgan me'yorlar). Ularga kompaniyalar haqida qonunlar, qimmatli qog'ozlar haqidagi qonunchilik, aksiyadorlar huquqlarini va investitsiyalarni ximoya qilish qonunlari, iqtisodiy nochorlik, soliq qonunchiligi va boshqalar kiradi.

II. Aksiyadorlik jamiyatlar tomonidan kuchga kiritiladigan va uning ichki hayotini tartiblashtiradigan me'yorlar (aksiyadorlik korporativ me'yorlar): korporativ boshqaruvning ixtiyoriy qabul qilingan andozalari haqidagi o'zaro kelishuv va kompaniya darajasida ularni amalga oshirilish tartibini belgilaydigan ichki me'yorlar (korporativ qimmatli qog'ozlar listingiga talablar, kodekslar va korporativ boshqaruv bo'yicha tavsiyalar).

III. Tashkiliy deb nomlanuvchi shartnomalarda, ya'ni boshqa tomonlar bilan ish aloqalarini o'rnatish, davom ettirish, to'xtatish (bir so'z bilan aytganda tashkil qilishga) qaratilgan kelishuvlarda berilgan me'yorlar.

IV. Umumjamiyat amaliyoti va biznes yuritish madaniyati.

Korporativ huquq bu – korxonada ishlab chiqilgan qoidalar tizimi bo'lib, manfaatdor tomonlarning irodasini ifodalaydi va tashkilot faoliyatining turli tomonlarini tartibga soladi.

### **Korporativ huquqning belgilari:**

- korporativ huquq me'yorlardan, ya'ni umumiy xarakterga ega bo'lgan o'zaro munosabatlar qoidalaridan tarkib topgan;
- korporativ huquq o'zi bilan tashkilot faoliyatining barcha tomonlarini tartibga soluvchi me'yorlar tizimini tashkil qiladi;
- korporativ me'yorlar tashkilotning har bir a'zosi, korxonaning har bir xodimi uchun majburiydir;
- korporativ me'yorlar, odatda, yozma shaklda ifodalanadi va ularni o'rnatish shakli sifatida korporativ hujjatlar xizmat qiladi;
- korporativ me'yorlar korxonada qabul qilinadi va alohida mustaqil birlashma jamoasining irodasini ifodalaydi;
- korporativ me'yorlar buzilganda, majbur qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Aksiyadorlar qoldiq mulk egalari sifatida o'z zimmlariga olayotgan tavakkalchilik xatari evaziga muayyan kafolatlangan haq-huquqlarga ega bo'lishlari shart. Mulikka daxldorlik, aksiyalarni o'tkazib berish huquqi, foydadan o'z ulushini olish va muhim korporativ qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish huquqlarini shu jumlagi kiritish mumkin. Agarda aksiyadorlarga erkin huquq berilmasa, ular tez orada jamiyatga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Bu jamiyatga investitsiya jalb etish imkoniyatini mushkullashtiradi hamda butun faoliyat barqarorligini xavf ostiga qo'yadi.

Korporativ boshqaruvning murakkab va ziddiyatli tabiatini e'tiborga olib, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari uchun korporativ hamjamiyatining har xil qatnashchilari bilan uning faoliyatini boshqaruvchi turli organlari o'rtasidagi kelishuvlar va ziddiyatlarni hal etish mexanizmini shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan korporativ xatti-harakat mexanizmini tartibga soluvchi turli ko'rinishdagi kodekslar, xususan, aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash masalalari, boshqaruvchining aksiyadorlik jamiyatining umumiy yig'ilishi oldida hisob berishi masalalarini ifodalovchi qoidalar ishlab chiqilishi zarur.

Aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga ana shunday kodekslarning tatbiq etilishi xorijda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, davlat organlari hamda nohukumat tashkilotlar tomonidan korporativ xatti-harakat kodekslari, korporativ axloq va ishchanlik aloqalari masalalari yuzasidan uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Korporativ me'yoriy hujjatlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- obyektiv haqqoniylikni aks ettirishi;
- amaldagi qonunchilikka zid kelmasligi;
- kompaniyaning barcha a'zolari va xodimlari uchun tushunarli bo'lishi;
- me'yorlarning betartib to'plamini tashkil qilmasdan, balki ma'lum bir tuzilmaga ega bo'lishi;
- barcha zarur rekvizitlarga ega bo'lishi.


Korporativ boshqaruv kodeksi – ixtiyoriy belgilanuvchi andozalar va ichki me'yorlar yig'indisi bo'lib, korporativ munosabatlarning tartibini o'rnatadi va tartibga soladi. Kodeks korporatsiyadagi korporativ boshqaruvning barcha muhim elementlariga taaluqli bo'lgan asosiy me'yorlardan va tavsiyalardan tarkib topishi kerak. Emitentlarning Kodeks qoidalariga rioya qilishidan asosiy manfaatdorligi qimmatli qog'ozlar bozori orqali ularning investitsiyalarni jalb qilishga intilishidir.

Korporativ boshqaruv tizimi amal qilayotgan xar bir davlatda o'ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda ,ijtimoiy – iqtisodiy holatiga mos ravishda turlicha bo'ladi. Mamlakatda korporativ boshqaruvning rivojlanganlik darajasi aksiyadorlarning huquqlari ,ularning kapitali va aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanganlik holati bilan bevosita bog'liqdir.

Hozirgi davrda jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning Amerika Germaniya va Yaponiya modellarini ko'rish mumkin. Bu modellarga mamlakatimizda korporativ boshqaruvni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shayotgan yosh olimlaridan D.Suyunov o'z fikr – mulohazalarini berib o'tgan.

Jumladan , Amerika modelining asosida har bir fuqaroni shaxsiy boylikka ega bo'lishini ta'minlash yotadigan bo'lsa, Germaniya modelining asosida esa har bir fuqaroning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi yotadi.

Yaponiyada korporativ boshqaruv modeli Germaniya va Amerika modellari orasidagi model' bo'lib ,bunda ikkala mamlakat boshqaruv modelining elementlari ishtirok etadi. Bu modellarning qiyosiy tahlil quyidagicha aks ettirilgan. (3.1.1.-rasm) Korporativ boshqaruvning Amerika modeli bevosita AQShda aksiyadorlik mulkining tizim xususiyatlariga bog'liqli.



**3.1.1- rasm Korporativ boshqaruv modellari** <sup>13</sup>

**Korporativ boshqaruvning Amerika modeli.** Korporativ boshqaruvning amerika tizimi xususiyatlari AQShda aksiyadorlik mulkchilikning

<sup>13</sup> С.Д. Корпоратив бошқарув механизми: Муаммо ва ечимлар. Монография –Т .Академия, 2007 – 103 б

xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Xususan, amerika korporatsiyalariga boshqa investorlardan ko'ra o'z ta'sirini kuchliroq o'tkaza oladigan yirik investorlarning yo'qligi xosdir.

Bu investorlar qo'llarida 50%dan oshiq kapitalni jamlar ekan, ko'proq moliyaviy menejer sifatida qatnashishga moyilroq bo'lib, direktorlar kengashi ishida qatnashishga intilmaydilar va odatda o'zlari yirik paketga egalik qilgan kompaniyalar uchun mulkchilik huquqidan kelib chiqadigan mas'uliyatni o'z zimmalariga olishdan o'zlarini olib qochadilar.

**Korporativ boshqaruvning tarmoq (yapon) modeli** mazmuniga ko'ra Amerika modeliga ham, Germaniya modeliga ham o'xshamaydi, biroq ikkala modelning ayrim xususiyatlarini o'z ichiga olgan:

- direktorlar kengashi tarkibida mustaqil Direktorlar bo'lmasdan, Kengashning barcha a'zolari yuqori boshqaruv organi vakillari yoki eski boshqaruvchilardir;

- aksiyadorlik sarmoyasini asosan yirik investorlar tashkil qilib, yagona sanoat guruhiga a'zo bo'lgan kompaniyalarning o'zaro aksiyalariga egalik qilish holati muhim o'rin tutadi.

- shaxslararo munosabatlar kuchli bo'lib muhim ahamiyatga ega;

- insayderlarning etakchiligi.

**Korporativ boshqaruvning nemis modeli** AQShdan farqli o'laroq, Germaniyada aksiyadorlik kapitalining katta qismi boshqa kompaniyalar egaligida turadi: barcha aksiyadorlik kapitalining yarmidan ko'pini bir-birining aksiyalariga egalik qilish tizimi o'z ichiga oladi. Shaxsiy investorlar Germaniyada ikkinchi yirik investorlar guruhini tashkil qilsa ham (nemis kompaniyalarining taxminan 16% aksiyasiga egalik qiladilar) ular aksiyalarining ko'p qismi taqdim etuvchiga sertifikatini ko'rinishiga ega bo'lib, bu sertifikatlar ularning egalari topshirig'iga ko'ra, xususiy aksiyadorlar aksiyalarining juda katta qismi jamlangan banklar tomonidan boshqariladi. Shuning uchun, Germaniya kompaniyalarini erkin sotuvda bo'lgan aksiyalarining juda katta ulushi (90%dan ortig'i) tashkilot-investorlar tomonidan boshqariladi (o'zlari aksiya egalari bo'lmasa ham).

Nemis kompaniyalarining aksiyadorlik kapitali yirik aksiyadorlar qoʻlida kuchli darajada jamlangan. Natijada, amerikalik kasbdoshlariga nisbatan nemis mulkdorlari va ular kapitalini boshqaruvchi moliya institutlari oʻz kompaniyalari bilan ancha yaqin ish munosabatlarida boʻladilar.

Har bir modelning asosiy belgilari yoki unsurlari - bu aksiyadorlik jamiyati yoki korporatsiyaning asosiy ishtirokchilari, muayyan modelda aksiyalarga egalik qilish tartibi, kuzatuv kengashining tarkibi, qonunchilik doiralari, listinga kiritilgan korporatsiyalar uchun axborotning oshkor etilishiga nisbatan qoʻyiladigan talablar, aksiyadorlarning maʼqullashini talab qiluvchi korporativ xarajatlar;

### 1.3.1-jadval

#### Korporativ boshqaruv modellarining qiyosiy xususiyatlari<sup>14</sup>

<b>№</b>	<b>Modellarning xususiyatlari</b>	<b>Ingliz-Amerika modeli</b>	<b>Nemis modeli</b>	<b>Yapon modeli</b>
<b>1</b>	Ijtimoiy qadriyatlar tizimi	Shaxsiyatparastlik, tanlov erkinligi	Ijtimoiy hamkorlik	Hamkorlik va ishonch
<b>2</b>	Mehnat jamoasining roli	Passiv	Faol	Faol ishtirokchilik
<b>3</b>	Moliyalashtirishning asosiy usuli	Fond bozori	Banklar	Banklar
<b>4</b>	Axborot nomutanosibligi	Menejment	Menejment, «uy» banki	Bosh bank
<b>5</b>	Investitsiyalash muddatlari	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli	Uzoq muddatli
<b>6</b>	Kapitalning qiymati	Yuqori	Oʻrta	Past
<b>7</b>	Kapital bozori	Yuqori likvidli	Likvidli	Nisbatan likvidli
<b>8</b>	Asosiy iqtisodiy birlik (yirik biznesda)	Kompaniya	Xolding	Moliya-sanoat guruhi
<b>9</b>	Menejmentga haq toʻlash	Yuqori	Oʻrta	Past
<b>10</b>	Aksiyadorlik kapitalining tuzilmasi	Sochilgan	nisbatan jamlangan	Jamlangan

<sup>14</sup> Б.Ю.Ходиев,Р.Х.Карлибаева,Н.И.Акрамова. Тошкент-2011 – 47 б

O'zbekistonda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar ichida millat mentaliteti muhim ahamiyatga egadir.

Millat mentalitetini tashkil etuvchi elementlar (bilim salohiyati, ilmiy tafakkuri maqsad salohiyati, ijtimoiy muhit, qadriyat, an'analar, madaniyat, siyosiy muhit, iqtisodiy psixologiya, huquqiy ong va h.k.) iqtisodiy tizim va uni boshqarishga bevosita bog'liq omillar majmui hisoblanadi. Millatning mentaliteti, millatning shakillanish tarixi, uning qadriyatlari va bilim salohiyati kabilar asosida vujudga keladi.

Boshqaruv organlari tuzilmalari va ular faoliyatini tashkil qilishning turli modellarini baholashda, har bir model o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega ekanligini tushunish muhimdir. Ushbu tizimlarning har biri ham samarali bo'lishi mumkin, agar ular mos ravishdagi boshqaruvi bilan o'zlari joylashgan ayni bir ijtimoiy tizimning huquqiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga monand bo'ladi.

Shunday tizimni tanlash kerakki, mazkur tizim aynan O'zbekiston uchun o'ziga xos echimni ifodalashi va boshqa davlatlarda ishlatilayotgan modellarning shunchaki nusxasi bo'lmasligi kerak. Boshqaruvga nozik yondashuvni qo'llab-quvvatlash kerak bo'lib, mos ravishdagi boshqaruv modeli nafaqat har bir kompaniyada turlicha bo'ladi, balki ayni bir kompaniyaning turli yashash davrlarida ham o'zgartirib boradi.

Yangi korporativ boshqaruv tizimni qo'lagan xolda texnologiyalar rivoji va iqtisodiyotning globallashtiruvini kompaniyalarning qayta tashkil qilinish sur'atlari o'sishiga va korporativ tuzilmalarning tubdan o'zgarishlariga ta'sirini inobatga olganda yanada to'g'riroq bo'ladi.

Kompaniyalar o'z holatiga eng mos keladigan, biroq investorlar tomonidan samarali qaror qabul qilinishiga olib boradigan va axborotlarning muvofiq oshkora qilinishini ta'minlaydigan samarali tamoyillar asosida qurilgan korporativ amaliyotni qabul qilish mas'uliyatini o'z zimmlariga olishlari kerak.

## **I bob bo'yicha xulosa**

Boshqaruv muammolari murakkablashuvidagi sifat bosqichi ko'p sonli aksiyadorlarga va murakab tarkibga ega bo'lgan yirik kompaniyalar (aksiyadorlik jamiyatlari, xoldinglar, moliya-sanoat guruhlarini)ning shakllanishi natijasida yuz berdi.

Birinchidan, Jamiyatni ta'ris etish, uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi va muassis tomonidan jamiyatning aksiyalari haqini to'lash uchun kiritilayotgan qimmatli qog'ozlarning, o'zga mulkiy huquqlarning yoki pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan boshqa huquqlarning pulda ifodalangan bahosini tasdiqlash haqidagi qarorlar muassislardan tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Kompaniya mulkdorlari sifatida mulkni joriy boshqarishda bevosita shaxsiy ishtirok etishdan voz kechgan ipvestitsiya va pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari singari yirik sarmoyadorlar paydo bo'ldi. Shuning uchun professional yollanma boshqaruvchilar kompaniyalarni boshqarishda muhim rol o'ynay boshladi.

Ikkinchidan, korporativ boshqaruvning asosiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining faoliyatga jalb etilgan turli shaxslar mafaatlari muvozanatini o'rnatishdan iborat. Korporativ boshqaruvning murakkab va ziddiyatli tabiatini e'tiborga olib, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari uchun korporativ hamjamiyatining har xil qatnashchilari bilan uning faoliyatini boshqaruvchi turli organlari o'rtasidagi kelishuvlar va ziddiyatlarni hal etish mexanizmini shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy korporatsiyalarda aksiyadorlar aksiyalarni xarid qilib, mablag'larini korporatsiya ixtiyoriga topshiradigan va ushbu sarmoyadan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq xatarni o'z zimmasiga oladigan vaziyat yuzaga keldi. Ayni paytda, aksiyadorlar kompaniya faoliyatini joriy boshqarish vazifalarini hal etishda qatnashmaydilar va tashqi tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda uni namoyon qilmaydilar. Korporatsiyani joriy boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul qilish huquqi aksiyadorlar tomonidan yollanma menejerlarga topshiriladi.



## **II BOB. “O‘ZPAXTASANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV VA UNING MOLIYAVIY-IQTISODIY HOLATI TAHLILI**

### **2.1. “O‘zpxatasanoat” aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning tashkiliy tizimi va uning tahlili**

“O‘zpxatasanoat” aksiyadorlik jamiyati (“O‘zpxatasanoat” aksiyadorlik jamiyati keyingi matnlarda “O‘zpxatasanoat” AJ deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 27 oktyabrdagi PF-4761 sonli Farmoni, 2015 yil 28 oktyabrdagi PQ-2422 sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan tashkil etilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida keng ko‘lamli islohot va o‘zgarishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan taraqqiyot strategiyasi-dunyoda o‘zbek modeli degan nom bilan tan olingan va rivojlanish yo‘limiz asosida amalga oshirilayotgan bu islohotlarning amaliy natijlarini bugungi kunda har qadamda ko‘rish mumkin.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchisining), ijroiya organi a‘zosining, shuningdek jamiyat ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko‘ra chaqiriladi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o‘tkazish tartibi jamiyatning ustavida belgilab qo‘yiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish uchun kvorum jamiyat ustavida belgilanadi, biroq u jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a‘zolarning yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Jamiyat kuzatuv kengashi a‘zolarining soni jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo‘lgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a‘zolari

aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

Ijro organi vazifa va funksiyalari Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Agar jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, jamiyat ustavida boshqaruv rahbarining (boshqaruv raisining) vakolati ham belgilangan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Amalga oshirilayotgan ishlarda paxta tozlash sanoati korxonalarining ham o'z o'rnini bor. Iqtisodiyotimizning jadal rivojlanyotgan sohaslaridan biri bo'lgan paxta tozalash sohasini boshqarish "O'z paxtasanoat" AJ zimmasiga yuklatilgan. Yuqoridagi Farmon va qarorga asosan "O'z paxtasanoat" AJ quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- paxta xom ashyosini qabul qilish va qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida jahon bozorida raqobatdosh yuqori sifatli paxta tolasini ishlab chiqarish va uni paxta terminallariga o'z vaqtida yuklab jo'natish, shuningdek texnik chigitlarni tayyorlash va ularni yog' zavodlariga etkazib berish;

- fermer xo'jaliklaridan qabul qilinadigan paxta xom ashyosi va tayyor paxta mahsulotlari (paxta tolasini va chigit)ning miqdori va sifatini qat'iy va aniq hisob-kitob qilishni ta'minlash, paxta xom ashyosini qayta ishlashda noishlab chiqarish nobudgarchiliklarini qisqartirish;

- paxta tozalash tarmog'i korxonalarini tomonidan paxta tolasini va chigitning chiqishiga belgilangan davlat standartlari va me'yorlariga rioya etilishini

ta'minlash, ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining sifatini jahon bozori talablaridan kelib chiqqan holda oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- tuzilgan shartnomalarga muvofiq xarid qilinayotgan paxta xom ashyosi va jo'natilayotgan paxta mahsuloti uchun uni etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- paxtani qayta ishlovchi korxonalariga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalar, jumladan xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda ko'mak berish;

“O'z paxtasanoat” AJ tarkibiga 13 ta hududiy filiallar, 98 ta paxta tozalash korxonasi, 31 ta ixtisoslashtirilgan urug'lik chigit tayyorlash tsexi, 10ta viloyat mexanika ustaxonasi, 11ta hududiy va bitta markaziy ta'minot bazasi, 19 ta noto'qima matolar ishlab chiqarish tsehi, 100ta parrandachilik xo'jaligi, 196 ta ipak qurti boqishga ixtisoslashgan pillaxona, 1051 gektar maydonda barpo etilgan tutzorlar, 1200ta aholiga maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi, 528 gektar maydonga intensiv texnologiyalarga asoslangan bog'lar va ularda etishtirilgan meva mahsulotlarini saqlashga mo'ljalangan 100 ta muzlatgich hamda boshqalar kiradi.

O'zbekiston paxta tozalash korxonalarida yiliga 3,4 million tonnadan ortiq paxta xomashiyosi qayta ishlanib, 1,1 million tonna paxta tolasi, 1,8 million tonna chigit, momiq va boshqa turdagi mahsulotlar tayyorlanadi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Bugungi kunda O'zbekiston tashqi bozorda talab katta bo'lgan mahsulot paxta tolasining asosiy ishlab chiqaruvchisi va etkazib beruvchisidir. Respublika paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha jaxonda ikkinchi o'rinda turadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida barcha sohalarda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish zarurati paxta tozlash sanoatida paxta xomashiyosini dastlabki qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish hisobidan mahsulot tannarxini pasaytirish choralarini amalga oshirish masalasini dolzarb qilib qo'ydi. Mavjud texnologik sxemalar, jumladan bazaviy texnologiyalarni asosiy ko'rsatgichlar bo'yicha (energiya sig'imi, ashyolar sig'imi, ekspluatatsiya

xarajatlari, jarayonlar ixchamligi, xizmat ko'rsatish asosiy vositalarining emirilishi va hk) texnik-iqtisodiy tahlil qilish natijasida eng oqilona yo'l tanlanib, soha korxonlari rekonstruksiya va modernizatsiya qilindi. Shaharlar hududida joylashgan korxonalar o'rniga yangilari barpo etildi.

“O'z paxtasanoat” AJ tomonidan bu boradagi ishlar davom etirilib 2012-2014 yillarda tizimdagi 9 ta korxonada modernizatsiya va 1 ta korxonada rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1730-sonli hamda 2014 yil 3 apreldagi “Iqtisodiyotning real sektoriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2158-sonli qaroridan kelib chiqib soha korxonalarida olib borilayotgan islohotlar, xususan ularda o'zaro axborot ayirboshlash, axborot havfsizligini ta'minlash, moliyaviy-xo'jalik hisobotlarni elektron hujjatga aylanish jarayonlariga kompleks dasturni joriy etish masallari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720 sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofik tizimdagi barcha aksionerlik jamiyatlarida ushbu karorga muvofik yangi tashkiliy tuzilmalari shakllantirilib tasdiklandi. Shu munosabat bilan “O'z paxtasanoat” AJ tarkibida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va yanda rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqildi. Birinchi navbatda, soha korxonlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanib, tizimda himoyalangan VPN korporativ aloqa tarmog'i va @paxta.uz korxonalararo ichki elektron pochta tizimi yo'lga qo'yildi.

Korporativ boshqaruv – bu kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlik jamiyatlari ishtirokchilari) o‘rtasidagi kompaniya faoliyati samaradorligini ta’minlash va uning egalari, shuningdek boshqa manfaatdor tomonlarning (kreditorlar, hamkorlar, mijozlar, kompaniya personal va b.) manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash borasidagi o‘zaro munosabatlar tizimidir.

Korporativ boshqaruvning maqsad va vazifalari bo‘lib aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga jalb etilgan turli guruxdagi shaxslarning (aksiyadorlar, menejerlar, mehnat jamoasi a‘zolari, mahalliy davlat organlari, kredit beruvchi banklar, ta’minotchilar va b.) manfaatlarini muvozanatini ta’minlash hisoblanadi.

**Korporativ boshqaruv tamoyillari.** Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) turli davlatlarning korporativ boshqaruv sohasidagi amaliyotidan kelib chiqib, korporativ boshqaruv sohasidagi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishda 4 ta asosiy tamoyilga asoslanish tavsiya etilgan:

- sog‘lom raqobat sharoitlarida kompaniyaga uning barcha ishtirokchilari, jumladan katta bo‘lmagan aksiya paketlari (minoritar) egalarining huquqlarini ta’minlash orqali samarali faoliyat yuritishga sharoit yaratuvchi boshqarish qoidalarining **adolatliligi**;

- kompaniyaga tegishli barcha muhim masalalar bo‘yicha, jumladan mulk tuzilmasi, moliyaviy holat, faoliyat yakunlari va boshqalarni o‘z vaqtida va aniq oshkora etishni ko‘zda tutuvchi **shaffoflik**,

- barcha boshqaruv organlarining funktsiya va vakolatlarini aniq belgilashni ko‘zda tutuvchi **hisobdorlik**, ijroiya organlari kuzatuv kengashi va aksiyadorlarga hisobdorligi;

- kompaniya faoliyati bilan bog‘liq qarorlarni qabul qiluvchi rahbariyat va shaxslarning aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar oldidagi **mas’uliyatliligi**.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlar “O‘z paxtasanoat” AJda quyidagicha tashkil etilgan:

Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijro organi vazifalari Jamiyat Ustaviga asosan tasdiqlangan. Jumladan,

- Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi vazifa va funksiyalari;

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi;

Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart;

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Umumiy yig'ilishda jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (bundan buyon matnda direktor deb yuritiladi), kollegial ijroiya organining (bundan buyon matnda boshqaruv deb yuritiladi) a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek ushbu Qonun 59-moddasi birinchi qismining o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilariga muvofiq jamiyatning yillik hisoboti, jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi. Jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta va uzoq muddatga rivojlantirishning muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash.

**Kuzatuv kengashining vazifa va funksiyalari.** Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ushbu Qonun va jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Ovoz beruvchi aksiyalar egasi bo'lgan aksiyadorlarning soni o'ttiz kishidan kam bo'lgan jamiyatda jamiyat kuzatuv kengashining vazifalari jamiyat ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday hollarda jamiyat ustavida aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish masalasini hal

etish o'z vakolat doirasiga kiritilgan muayyan shaxs yoki jamiyatning boshqaruv organi ko'rsatilishi kerak.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchisining), ijroiya organi a'zosining, shuningdek jamiyat ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibi jamiyatning ustavida belgilab qo'yiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat ustavida belgilanadi, biroq u jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarning etmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorning etmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

**Ijro organining vazifa va funksiyalari.** Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Agar jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, jamiyat ustavida boshqaruv rahbarining (boshqaruv raisining) vakolati ham belgilangan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Jamiyat tarkibidagi korxonalar va tashkilotlarni o'zining hududiy filiallari orqali boshqaradi. Jamiyatning hududiy filiallari o'zining Ustaviga asosan quyidagi vazifalarni bajaradi.

Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olishdir. O'z maqsadlariga erishish uchun amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyatni amalga oshiradi:

- paxta tozalash korxonalarini orqali paxta etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini va fermer xo'jaliklari bilan paxta xom ashyosini etishtirish va qayta ishlash bo'yicha kontraktatsiya shartnomalarini tuzishni tashkil etadi;

- tomonlarning kontraktatsiya shartnomalarini bajarishlarini va paxta tozalash korxonalarini tomonidan taqdim etiladigan qabul qilingan paxtaning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qiladi;

- paxta tozalash korxonalaridan berilgan hisob varaqlar asosida paxta tozalash korxonalarini va iste'molchilar bo'yicha jo'natilgan yuk hajmi, mahsulot turlari (assortimenti)ni ko'rsatgan holda hisobot yuritadi;

- iste'molchilarga yuklab jo'natilgan paxta mahsulotlari uchun hisobvaraqq-faktura (yuk hujjatlari) rasmiylashtiradi va to'lov uchun taqdim qiladi;

- iste'molchilardan kelib tushgan pul mablag'larining belgilangan tartib asosida maqsadli ishlatilishini ta'minlaydi, mahsulot etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va ular bilan solishtiruv dalolatnomalarini tuzadi;

- paxta mahsulotlarining iste'molchilarga amaldagi tartibga qat'iy rioya qilgan holda to'g'ri jo'natilishini ta'minlaydi;

## **2.2. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili**

Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda avvalombor bir tonna tola ishlab chiqarish xajmini tahlil qilish zarur. Shuning uchun biz korxonada ishlab chiqarish jarayonlari natijasini hisobot materiallaridan foydalanib tahlil qilamiz.



2.1-jadval

1 tonna paxta tolasi ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan xarajatlar to'g'risda

MA'LUMOT<sup>15</sup>

Ko'rsatgichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	Jami yillik (ming so'm)	1 tonna mahsulot uchun xarajatlar (so'm)	Jami yillik (ming so'm)	1 tonna mahsulot uchun xarajatlar (so'm)	Jami yillik (ming so'm)	1 tonna mahsulot uchun xarajat (so'm)
1 tonna xom-ashyo narxi	2,9	976,2	3 27	809	3 33	709
Qayta ishlashdan olinadigan mahsulot chiqishi	33,1	33,2	33,1	33,3	33,1	33,1
1 tonna qayta ishlashdan olinadigan mahsulotga xom-ashyo sarfi	8 8,4	2 9,4	9 8,7	3 2,7	10, 8	3 3,2
Ikkilamchi mahsulot narxi	1 1,7	37,9	1 2,5	42,2	1 2,5	48,3
Xom-ashyo narxi (ikkilamchi mahsulotsiz narxi ayrilgan holda)	<b>27,5</b>	<b>-37, 0</b>	<b>-1 2,4</b>	<b>2 8,5</b>	<b>-1 2,7</b>	<b>2 8,7</b>
Qayta ishlash xarajatlari	1, 2	4, 4	1 3,8	47,9	1 4,1	45,6
Tayyorlov xarajatlari	57,2	19,9	63,9	21,7	65,2	18,1
<b>Jami tan-narx</b>	<b>1 8,5</b>	<b>23, 3</b>	<b>77,4</b>	<b>3 5,5</b>	<b>79,1</b>	<b>3 5,1</b>
<b>Davr xarajatlari</b>	<b>88,0</b>	<b>29, 6</b>	<b>98,3</b>	<b>30,8</b>	<b>1 0,0</b>	<b>27,5</b>
Jami soliqlar	51,7	17,6	57,7	19, 8	58,9	18,3
Sotish xarajatlari	49,7	16,5	55,6	10,3	56,6	10,3
Boshqaruv organi saqlash xarajatlari	100,9	33,3	11,7	32,2	11,4	25,5
soliqsiz boshqa operatsion xarajatlar	23,8	71,3	23,8	26,9	24,3	56,3
<b>Jami xarajatlar</b>	<b>2 6,9</b>	<b>52, 9</b>	<b>2 7,6</b>	<b>3 8,6</b>	<b>1 7,9</b>	<b>3 7,9</b>
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	23,8	79,5	26,6	29,8	27,1	10,8
Daromad solig'i	4,2	13,6	45,8	16,5	46,8	12,3
Soy foyda	6,9	23,1	77,0	27,0	78,6	44,2
Rentabellik (tan-narxga nisbatan)	3,81	0,96	9,95	0,76	9,95	3,36

<sup>15</sup> Ushbu jadval O'z paxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2013 yil Hisobot davrida 1 tonna xomashyo narxi 976,2 ming soʻmni tashkil qilgan. Qayta ishlashdan olinadigan mahsulot chiqishi 33,2 foizni tashkil etadi, 1 tonna qayta ishlashdan olinadigan mahsulotga xomashyo sarfi 2,9 mln. soʻmni, ikkilamchi mahsulot narxi 376,0 ming soʻm, Qayta ishlash xarajatlari 413,4 tayyorlov xarajatlari 190,9, jami tannarx 3168,7 ming soʻm, davr xarajatlari 293,6 ming soʻm, sotish xarajatlari 16,6 boshqaruv organini saqlash xarajatlari 334, moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar 79,5 daromad soligʻi 13,7 sof foyda 23,0 mln.soʻm, rentabellik (tannarxga nisbatan) 0,73 foizni tashkil etgan.

2015 yilga kelib koʻrsatgichlar quyidagicha oshganini koʻrishimiz mumkin:

1 tonna xomashyo narxi 1,1 mln. soʻmni tashkil qilgan. Qayta ishlashdan olinadigan mahsulot chiqishi 33,1, 1 tonna, qayta ishlashdan olinadigan mahsulotga xomashyo sarfi 3,4 mln. soʻm, ikkilamichi mahsulot narxi 0,5 mln. soʻm, qayta ishlash xarajatlari 0,5 mln. soʻm, tayyorlov xarajatlari 0,2 mln. soʻm, jami tannarx 3,5 mln. soʻm, davr xarajatlari 0,3 mln. soʻm, sotish xarajatlari 0,2 mln. soʻm, boshqaruv organini saqlash xarajatlari 0,3 mln. soʻm, moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlar 0,1 mln. soʻmga oshgan, daromad soligʻi 0,2 mln. soʻm, sof foyda 1,2 mln. soʻm, rentabellik (tannarxga nisbatan) 0,72 ga oshgan.

Yillar kesimida berilgan maʼlumotlar asosida korxonadagi iqtisodiy oʻsish, xamda ishlab chiqarish jarayoni xarajatlari taxlili undagi sifat koʻrsatgichlarini oshirish va sotish xajmini kengaytirish orqali, korxonaning moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlarini kamaytirish orqali cof foyda bilan chiqish mumkin.

Korxondagi ishlab chiqarish jarayonida bir tonna mahsulotga ketgan xarajatlarni aniqlash orqali uning foyda yoki zarar bilan chiqishini belgilab beradi va shu orqali xaridorlarni oʻziga jalb qilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jaryonidagi xarajatlarni qisqartishlari orqali foyda olish va undagi foydani taqsimlash natijasida yangi ish oʻrinlarini tashkil etish va korxonaning moliyaviy saloxiyatini oshirish, shu bilan bir qatorda mahsulot turlarini koʻpaytirish ham mumkin. Yillar kesimida energiya resurslarini tejash tannarxga nisbatan 2013 yilda 11 foizga qisqartilgan, 2015 yilga kelib 10 foizga etgan.

**O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi paxta tozalash  
korxonalarida ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichlari<sup>16</sup>**

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	mln so'm	tannarxga nisbatan %	mln so'm	tannarxga nisbatan %	mln so'm	tannarxga nisbatan %
<b>Jami:</b>	<b>52,3</b>	<b>11,0</b>	<b>62,5</b>	<b>11,5</b>	<b>60,9</b>	<b>10,07</b>
shu jumladan						
energiya resurslarini tejash	22,8	4,8	22,6	4,16	12,9	2,15
Xom-ashyo va materiallarni me'yorlash va qisqartirish	15,7	3,3	5,3	0,97	12,9	2,13
Ma'muriy boshqaruv xarajatlarini qisqartirish	2,6	0,5	2,1	0,39	1,0	0,17
Foydalanish va noishlabchiqarish xarajatlarini kamaytirish	2,9	0,6	8,9	1,64	2,8	0,46
Ustama xarajatlarini kamaytirish	4,2	0,9	4,8	0,88	12,3	2,03
Texnologik va boshqa yo'qotishlarni kamaytirish	5,7	0,1	0,8	0,15	8,0	1,33
Sanoat-ishlab chiqarish xodimlari sonini maqbullashtirish	0,6	0,1	7,5	1,39	2,3	0,38

Xomashyo va materiallarni me'yorlash va qisqartirish 2013 yilda 3,3 foizga, 2015 yilda 2,13 foizga kamaygan. Ma'muriy boshqaruv xarajatlarini qisqartirish 2013yil 0,5 foizga, 2015 yilda bu ko'rsatgich 0,17 foizga qisqartirilgan, foydalanish va noishlab chiqarish xarajatlari 2013 yilda 0,6 foizga, 2015 yil 0,46 foizga kamaytirilgan.

Ustama xarajatlarni 2013yilda 0,9 foizga, 2015yilda esa bu 2,03 foizga kamaytirishga erishilgan, texnologik va boshqa yo'qotishlarni 2013 yilda 0,1 foizdan, 2015 yilda 1,33 foizga kamaytirishga erishilgan, sanoat-ishlab chiqarish xodimlari sonini optimallashtirish uchun 2013 yilda 0,1 foizga qisqartirilgan

<sup>16</sup> Ushbu jadval O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo'lsa, 2015 yilga kelib bu ko'rsatkichni 0.38 foizga darajasiga erishilgan, Mehnat unumdorligini oshirish xisobiga sarf-xarajatlar ulushini 2013 yilda 0.6 foizga kamaytirilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib turli boshqaruv jarayoniga axborot texnologiyalarni joriy qilish orqali 1.42 foizga kamaytirishga erishildi.

Paxta tozalash korxonalarida har bir ishlab chiqarish jarayoni bosqichlarida qisqartirish, ya'ni yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali qisqartirish ishlari amalga oshirilmoqda, bunda to'la qayta ishlashda birlamchi mahsulot to'la va chigitni qayta ishlashda Xitoy davlatidan keltirilgan jixozlarni o'rnatish orqali ishlab chiqarish xarajatlari sarfini kamayishiga erishilmoqda, sohaga axborot texnologiyalarni joriy qilish natijasida xarajatlarni 20 foizga qisqartirishga erishildi, shuning bilan birga ma'muriy boshqaruvdagi xarajatlari hisobot topshirishda elektron tarzda topshirish onlayn tarzda oylik hisobotlar topshirishni yo'lga qo'yish orqali yil sayin joylarda harajtlarni qisqartirish ishlari amalga oshirilmoqda.

### 2.2.2-jadval

#### “O'zpakstanoat” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi paxta tozalash korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>17</sup>

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013	2014	2015
1	Tovar mahsuloti qiymati	mlrd.so'm	3496,8	4078,4	4623,6
2	Realizatsiya qilingan tovar xajmi	mlrd.so'm	3405,2	4015,7	4961,2
3	Xalq iste'moli tovarlari	mlrd.so'm	7307,0	8038,1	8841,1
4	Investitsiyalar hajmi	mlrd.so'm	4452,9	7975,6	2910,8
5	Import	ming.dollar	15,2	11,8	10,9
6	Respublikadagi yangi ish o'rinlari	birlik	3264	3610	4987

“O'zpakstanoat” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi paxta tozalash korxonalarida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar taxlil qilishda undagi har bir jarayon alohida ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatning rivojlanish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va sohadagi ishlarni joylarda tashkil teish birinchi barajali ishlarda bir hisoblandi.

<sup>17</sup> Ushbu jadval O'zpakstanoat" aksiyadorlik jamiyati statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Joylarda to'g'ri tashkil qilingan ishlar va amalga oshirilayotgan har bir iqtisodiy jarayonlarda amaliy yordamlar berilib undagi kunlik, oylik, choraklik rejalar tasdiqlanadi, turli korxonalar va tashkilotlar bilan bo'layotgan moliyaviy operatsiyalarda bank kreditini olishda, texnika texnologiyalar sotib olishda rivojlangan mamlakatlardan, soxaga oborot texnologiyalarni xarid qilishda va tovar xomashiyosi birjasidan olinayotgan tovar moddiy boyliklarini xarid qilishda moliyaviy mablag'larni ajratadi, olingan mahsulotni baza orqali etkazib beradi, iste'molchilardan tushayotgan pullarni taqsimlash, undan olingan foydani tasissichilik yo'li bilan noto'qima korxonalar tashkil etishda joylarda moliyaviy mablag'larni ajratilishini nazorat qiladi .

Yuqorida fikrlarga tayyanib 2.1-jadvalni quyidagicha taxlil qilamiz. Tovar mahsulot qiymati 2013 yilda 3496,8 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2015 yilga kelib 4623,6 mln.so'mga ortgan, sotilgan tovar xajmi 2013 yilda 3405,2 mln.so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2015 yilda 4961,2 mln.so'm ga ortgan, 2013 yilda 7307,0 mln.so'm halq iste'moli tovarlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2015 yilga 4961,2 mln.so'mga ortgan. Investitsiyalar hajmi 2013 yilda 6452,8 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 2910,7 mln.so'mni xorijiy investitsiyalar dividend ko'rinishdagi sof foydaning xisobidan kiritilgan, import 2013 yilda 15,2212 ming.dollar qilishga erishilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2015 yilga 10,931 ming.dollar kamaygan buning natijasi jahon bozoridagi inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgani, naxlarni keskin pasayib ketishga olib kelmoqda, Respublika 2013 yilda 3264 birlik yangi ish o'rinlari tashkil etgan bo'lsa ,paxta tozalash korxonalarini tashkil etishda yangi kalava ipni qayta ishlaydigan korxonlarni, xomashiyalar ko'rsatuvchi obyektlarga investitsiyalar kiritish orqali, pillani tayrlash va qayta ishlochi korxonlarini tashkil etish evaziga 2015 yilga kelib bu ko'rsatgich 3351ta birlik yangi ish o'rini yaratishga erishildi.

### **2.3. Yangi joriy etilgan boshqaruv tizimi samaradorlik tahlili**

“O'z paxtasanoat” AJni tashkil etish bo'yicha Davlat raqobat qo'mitasining buyrug'i qabul qilinib, Jamiyat 2015 yil 3 noyabrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

“O‘zpaxtasanoat” AJ ustav kapitali “Paxtasanoat” hududiy aksiyadorlik birlashmalarining ustav fondlaridagi aksiyalarning davlat paketlarini topshirish hisobiga 522 682 mln. so‘m etib belgilangan. “O‘zpaxtasanoat” AJ yagona ta‘sischisi (Davlat raqobat qo‘mitasi) yig‘ilishining bayonnomasi asosida “O‘zpaxtasanoat” AJ aksiyalarining birlamchi chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori tasdiqlangan va Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi saylangan. Bugungi kunda chiqarilgan aksiyalar “O‘zpaxtasanoateksport” XKga to‘liq joylashtirilgan. “O‘zpaxtasanoateksport” XK faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Hukumat komissiyasining bayoni bilan Davlat raqobat qo‘mitasi raisi “O‘zpaxtasanoat” uyushmasini tugatish komissiyasi tashkil etildi, shuningdek “Paxtasanoat” hududiy aksiyadorlik birlashmalari “O‘zpaxtasanoat” AJga qo‘shilish yo‘li bilan tugatilishi bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlari o‘tkazildi, “O‘zpaxtasanoat” AJ hududiy filiallari MCHJ shaklida tashkil etilgan.

“O‘zpaxtasanoat” uyushmasini tugatish komissiyasi tomonidan tegishli hisob-kitoblar amalga oshirilib haqdor va qarzdorlarga xabarnomalar yuborilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 28 apreldagi PQ-2340-son qaroriga asosan 31 ta paxta tozalash korxonasining aksiyalari strategik xorijiy investorlarga sotish uchun belgilangan tartibda “Toshkent” Fond birjasining savdo maydonchasiga chiqarilgan.

Jami chiqarilgan 40,4 mln. dona aksiyalarning baholangan qiymati 171,148 mln. AQSH doll. va 44,870 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Mazkur korxonalariga xorijiy investorlarni jalb qilish bo‘yicha Singapur, Bangladesh va Xitoy Xalq Respublikasida xorijiy investorlarga sotilishi mo‘ljallangan aksiyalar bo‘yicha prezentatsiyalar o‘tkazilgan.

Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Korporativ boshqaruvi ilmiy-ta‘lim markazining malaka oshirish kurslarida jadval asosida 44 nafar xodim va Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 16 fevraldagi 116-f-son farmoyishiga asosan paxta tozalash korxonalarining 3 nafar rahbari o‘qitilgan.

“O‘zpaxtasanoat” AJ nomzodlari Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 11 noyabrdagi 894-f-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “O‘zpaxtasanoateksport”

xolding kompaniyasi va uning tarkibiga kiruvchi “O‘zpaxtasanoat”, “O‘zpaxtaeksport” va “O‘zpaxtayog” AJlarini yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan butlash, shuningdek ularning mulkiy masalalarini yechishga ko‘maklashish bo‘yicha Ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, rozilik bildirilgandan so‘ng Vazirlar Mahkamasining ko‘rsatmasiga asosan belgilangan tartibda xodimlar ishga qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va tegishli qarorlari ijrosini ta’minlash yuzasidan belgilangan muddatda buyruqlar qabul qilingan hamda ijro uchun tizimdagi korxonalariga o‘z vaqtida yetkazilgan va ularning bajarilishi nazoratga olingan.

Hujjatlar bilan ishlash bo‘yicha yo‘riqnoma hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha Nizom tasdiqlangan hamda 2016 yilning 4-6 fevral kunlari barcha hududiy filiallar mas’ullari ishtirokida ijro intizomi bo‘yicha o‘quv-amaliy seminarlari o‘tkazilgan. Hujjatlarga tegishli nazorat kartochkalari yuritilgan.

Paxta xom ashyosini qabul qilish va qayta ishlash, paxta mahsulotlarining sifatini hamda raqobatdoshligini oshirish, shuningdek paxta tozalash korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar

“O‘zpaxtasanoat” AJ tizimidagi paxta tozalash korxonalarini tomonidan:

2013 yil hosilidan jami 3 361,2 ming tonna, 2014 yil - 3 400,2 ming tonna, 2015 yilda 3 361,3 ming tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi.

Shundan, 2013 yil hosilidan jami 1 102,1 ming tonna (33%) tola va 1 622,2 ming tonna (49%) chigit, 2014 yil - 1 115,5 ming tonna (33%) tola va 1 711,3 ming tonna (51%) chigit; 2015 yil sentyabr-aprel oylari - 960,63 ming tonna (33%) tola va 1 493,0 ming tonna (51,5%) chigit olindi (2-jadval).

Ishlab chiqarilgan paxta tolasining 2013 yil hosilidan jami 1 124,3 ming tonnasi (100%), 2014 yil - 1 015,2 ming tonnasi (100%), 2015 yil sentyabr-aprel oylari - 989,0 ming tonnasi (80,1%) terminallarga yuklab jo‘natilgan.

Ishlab chiqarilgan texnik chigitlarning 2013 yil hosilidan jami 1 440,0 ming tonnasi (100%), 2014 yil - 1 445,0 ming tonnasi (100%), 2015 yil sentyabr-aprel oylari - 1 263,2 ming tonnasi (87,3%) yog‘ zavodlariga yetkazib berildi.

Ko‘rilgan choralar natijasida quyindilar meyorga nisbatan:

quritish tozalash sexlarida 2013 yil hosilidan 8,9 foizga (4,37 ming tonna), 2014 yil - 8,5 foizga (4,43 ming tonna), 2015 yil sentyabr-aprel oylarida - 9,5 foizga (4,06 ming tonna) kamaygan;

ishlab chiqarishda 2013 yil hosilidan 1,8 foizga (4,99 ming tonna), 2014 yil - 8,3 foizga (22,38 ming tonna), 2015 yil sentyabr-aprel oylarida - 7,9 foizga (18,97 ming tonna) kamaygan.

“O‘zpaxtasanoat” AJ tizimidagi paxta tozalash korxonalarida sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijasida 2012 yilda 2 ta, 2013 yilda 10 ta, 2014 yilda 10 ta, 2015 yilda 12 ta jami 34 ta paxta tozalash korxonalarida ISO-9001 xalqaro standartlari joriy qilingan.

2016 yilda jami 25 ta paxta tozalash korxonalarida ISO-9001 xalqaro standartlarini joriy qilish ishlari olib borilmokda. Shundan yanvar-mart oylarida 5 ta paxta tozalash korxonalarida ISO-9001 xalqaro standartlari joriy qilingan.

Korxonalarda sifat menejmenti tizimlarini joriy etish hisobiga mahsulotlar raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida tayyor mahsulotlarning (paxta tolas va chigit) miqdori va sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan choralar natijasida:

Tolaning sifat ko‘rsatkichi 2013 yil hosili bo‘yicha 94,5 foiz, 2014 yil - 94,8 foiz, 2015 yil (sentyabr-aprel) - 95,0 foizni tashkil etgan. Oliy sinfga mansub tola 2013 yil - 42,4 foiz, 2014 yil - 53,0 foiz, 2015 yil - 45,0 foizni tashkil etgan;

Birinchi nav 1 sinfga mansub texnik chigit 2013 yil hosili bo‘yicha 74,6 foiz, 2014 yil - 81,3 foiz, 2015 yil - 70,1 foizni tashkil etgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda tasdiqlangan navlarni joylashtirishdan kelib chiqqan holda urug‘lik chigit tayyorlash va uni paxta yetishtiruvchi xo‘jaliklarga yetkazib berish holati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:



Tayyorlangan urug'lik chigit 2014 yil hosili uchun 101,8 ming tonna (rejaga nisbatan 101,8%), 2015 yil - 102,3 ming tonna (102,3%), 2016 yil - 99,2 ming tonna (102,3%), shundan dorilangan urug'lik chigit 2014 yil - 83,2 ming tonna (111,8 %), 2015 yil - 79,2 ming tonna (106,5%), 2016 yil - 76,3 ming tonna (105,1%)ni;

Paxta yetishtiruvchi xo'jaliklarga yetkazib berilgan urug'lik chigit 2014 yil hosili uchun 81,6 ming tonna (rejaga nisbatan 109,7 %), 2015 yil - 77,6 ming tonna (104,3 %), 2016 yil mart-aprel oylari - 64,3 tonna (88,6%)ni tashkil etgan (5-jadval).

Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 19 yanvardagi 01-03-12-7-sonli topshirig'iga asosan fermer xo'jaliklari va ta'minotchi korxonalarining o'zaro munosabatlarini yanada takomillashtirish maqsadida paxta tozalash korxonalari negizida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va hisob-kitob qilishda amaliy yordam ko'rsatuvchi 130 ta Monitoring markazlari tashkil etildi.

Monitoring markazlariga zaruriy shart-sharoitlar yaratildi va talab etilgan yumshoq mebel, jihozlar, kompyuter texnikasi va boshqa moddiy resurslar hamda "Damas" avtomobillari bilan ta'minlandi hamda internet tarmog'i va himoyalangan VPN-aloqasi o'rnatildi. Paxta va g'alla ekinlarni yetishtirish, ta'minotchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida Respublika bo'yicha yagona elektron axborot tizimi yaratildi.

Paxtani yetishtirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida fermer xo'jaliklariga 2 195 mlrd. so'm imtiyozli kredit ajratilishi rejalashtirilgan, shundan joriy yilning 25 aprel holatiga 524 mlrd. so'm kredit mablag'lari berildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, paxta tozalash korxonalarining fermer xo'jaliklari oldida debitorlik qarzdorligi 2014 yil 1 yanvar xolatiga 352,3 mlrd. so'm, 2015 yil 1 yanvar xolatiga 353,8 mlrd. so'mni tashkil etib 1,1 mlrd. so'mga oshgan bo'lsada, 2016 yil 1 aprel holatiga 203,8 mlrd. so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 150,0 mlrd. so'mga kamaygan.

Iste'molchillarga ortilgan paxta tolasi uchun 2013 yil hosili bo'yicha 3 603,9 mlrd. so'm, 2014 yil - 3 557,4 mlrd. so'm, 2015 yil – 875,1 mlrd. so'm to'langan .

Yog'-moy korxonalariga ortilgan texnik chigit uchun 2013 yil hosili bo'yicha 249,9 mlrd. so'm, 2014 yil - 280,0 mlrd. so'm, 2015 yil - 341,7 mlrd. so'm to'langan.

Iste'molchilarning paxta tozalash korxonalari oldidagi debitorlik qarzdorligi 2014 yil 1 yanvar holatiga 685 mln. so'm, 2015 yil 1 yanvar holatiga 635 mln. so'm, 2016 yil 1 aprel holatiga 625 mln. so'mni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2015-2019 yillarda tarkibiy qayta o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalashni ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" 2015 yil 4 martdagi PF-4707-son Farmoni va "2016 yilgi O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida" 2015 yilning 25 dekabrda PQ-2458-son qaroriga muvofiq "O'zpaxtasanoat" AJ tomonidan 2015-2019 yillarda umumiy qiymati 48,31 mln. AQSH dollarlik 3 ta investitsiya loyihasining bajarilishi nazarda tutilgan.

Ushbu maqsadda, "Paxta tolasi toylarini o'rashning zamonaviy tizimga o'tish va o'rash va bog'lash materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasi bo'yicha

7,03 mln. AQSH doll., "2015-2017 yillarda 8 ta paxta tozalash korxonalarida to'liq modernizatsiya ishlarini amalga oshirish" loyihasi bo'yicha 14,88 mln. AQSH doll., "2015-2019 yillarda 40 ta paxta tozalash zavodlarini qisman modernizatsiyalash" loyihasi bo'yicha 26,4 mln. AQSH doll. miqdorda investitsiya loyihalari bo'yicha tasdiqlangan Tarmoq rejasiga asosan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2015 yilda jami 12,45 mln. AQSH doll. (rejaga nisbatan 100%), 2016 yil I choragida 2,72 mln. AQSH doll. miqdorda mablag' (129,7%) o'zlashtirildi.

Hukumat rahbarining ko'rsatmasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank va Davlat soliq qo'mitasi tavsiyalariga asosan 48 ta soliq idoralari

xodimlari hamda 50 ta tijorat banklari xodimlari 2015 yilning 10-15 dekabr kunlari tizimdagi mavjud 98 paxta tozalash korxonasiining direktori lavozimiga tayinlandi.

“Paxtasanoat hududiy filiali” MCHJ direktorlari lavozimiga nomzodlar bo‘yicha viloyat hokimlarining tavsiyasi olinib, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda (6.04.2016 y., AK-P/459-son) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga kiritilgan.

“Paxtasanoat ilmiy markazi” AJning Malaka oshirish markazi tomonidan joriy yilning yanvar-aprel oylarida paxta tozalash korxonalarining 96 nafar bosh mexaniklari, 98 nafar hodimlarni boshqarish xizmati boshliqlari va 82 nafar xom ashyo bo‘yicha laborantlari, shuningdek, paxta tozalash korxonalarini tayyorlov maskanlarining 124 nafar laborantlarining malakasi oshirilgan.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, soha korxonalarida paxta xom ashyosini qabul qilish va qayta ishlash, paxta mahsulotlarining sifatini tobora oshirish, raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligini ko‘rsatdi.

1. “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi va “Paxtasanoat” hududiy aksiyadorlik birlashmalari tugatilishi yakuniga yetkazilmagan.

2. “O‘zpaxtasanoat” AJ tizimidagi 31 ta paxta tozalash korxonasiining aksiyalari strategik xorijiy investorlarga sotish uchun belgilangan tartibda “Toshkent” Fond birjasining savdo maydonchasiga chiqarilganligiga qaramasdan, bugungi kungacha salohiyatli chet el investorlar topilmagan va korxonalarining aksiyalari sotilmagan.

Korporativ munosabatlar bo‘yicha jami 111 nafar mutaxassislaridan 67 xodim (60%) korporativ munosabatlar malaka oshirishi kurslarida o‘qitilmagan.

3. “O‘zpaxtasanoat” AJni yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan to‘ldirish ishlari yakunlanmagan. Jumladan, paxta xom ashyosini tayyorlash va hisobga olish, urug‘lik chigit tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i lavozimi vakantligicha qolmoqda.

Shuningdek, ayrim joylarda paxta tozalash korxonalarini direktorligiga nomzodlar bilan suhbat nomigagina o‘tkazilgan, natijada bugungi kunda Davlat

solih idoralari va tijorat banklari xodimlaridan tayinlangan direktorlardan 20 tasi ariza bilan murojaat qilib, ishlay olmasliklarini bildirgan yoki sudning hukmi bilan muayyan huquqdan mahrum etilgan va buyruqlari chiqarilib egallab turgan lavozimlaridan ozod etilgan.

4. Hozirgi kunga qadar 59 ta paxta tozalash korxonalarida ISO-9001 xalqaro standartlari joriy etilmagan. Ayniqsa, Andijon, Namangan, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining bironta paxta tozalash korxonasida joriy etilmagan.

Boshqaruv tizimini tahlil qilishda dastlab korxonaning mavjud boshqaruv tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq «**Struktura**» (tarkib) lotincha so‘z bo‘lib, narsalar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi. Boshqarish tarkibi deganda boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog‘langan turli boshqaruv organlari va bo‘g‘inlarining majmui tushuniladi.

Boshqarishning u yoki bu vazifalarini xal qilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yukori organlarga bo‘ysunishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqa boshqarish tarkibi tushunchasini tashkil qiladi.

Bunday tarkib odatda «boshqaruv apparati tarkibi» deb yuritiladi. U biror–bir boshqaruv organining (vazirlikning boshqaruv apparati, korxonaning boshqaruv apparati va x.k.) bo‘limlari tarkibini bildiradi.

Bunda boshqarishni tashkil etishning dastlabki va belgilovchi omili ishlab chiqarish jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, obektlari va organlari uning tashkiliy tarkibini belgilab beradi.

Biz tahlil qilib o‘rganayotgan “O‘zpaxtasanot” aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tarkibi 2.3-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “O‘zpaxtasanot” aksiyadorlik jamiyati tashkiliy tarkibi oddiy chiziqli-funksional tarkib hisoblanadi. Unda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, jamiyatning kuzatuv kengashi va ijroiya organi ko‘rsatilmagan. Bu esa aksiyadorlik jamiyatida koroprativ boshqaruvni samarali tashkil etish boshqaruvning asosiy negizi xisoblanadi .

Istiqbolda “O‘zpxtasanot” aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xuquqiy jihatdan quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi yangi taxriri O‘zR 20.08.2015 y. O‘RQ-391-son qonunida ko‘rsatilganidek, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv organlariga quyidagilar kiradi:


- Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- Kuzatuv kengashi (Direktorlar kengashi);
- Ijroiya organi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi jamiyatni boshqarishning oliy organidir.

Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini (aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishini) o‘tkazishi shart.

Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin ko‘pi bilan olti oy ichida o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishida jamiyatning kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to‘g‘risidagi, yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi bilan, kollegial ijroiya organining a‘zolari, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish (shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to‘g‘risidagi, auditorlik tekshiruvi o‘tkazish haqida qaror qabul qilish to‘g‘risidagi masalalar, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to‘lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash masalalari hal etiladi, shuningdek ushbu Qonun 65-moddasining birinchi qismi o‘n uchinchi xatboshisiga muvofiq jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlar qarab chiqiladi.

**“O‘zpaktsaonat” aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv strukturasi**



Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi. Ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar soni o'ttiz kishidan kam bo'lgan jamiyatda kuzatuv kengashi vazifasi jamiyat ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi zimmasiga yuklanishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish masalasini hal etishga vakolati bo'lgan muayyan shaxs yoki jamiyat organi jamiyat ustavida o'z aksini topishi kerak.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda badal to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va to'lovlarning miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilab quyiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo'lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida:<sup>18</sup>

Quyidagilar korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

- xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

- chet el kapitali ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

- eski bo'linmalar va lavozimlarni tugatish, zamonaviy xalqaro standartlar va bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi bo'linma va lavozimlarni joriy etishni inobatga olgan holda, aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish;

---

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish .chora –tadbirlari to'g'risidagi Farmoni 24.04.2015 y.N.P.F-4720

Yuqoridagi farmonga asosan “O‘zpaktsaonat” aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy filiallari hamda paxta tozalash korxonalarida zamonaviy korporativ boshqaruni joriy etish orqali bo‘limlar nomlari qaytadan ishlab chiqilib boshqaruvga joriy etildi va tashkil etilgan korporativ ilmiy markazga tizim korxonlari xabarlarini hamda bo‘lim boshliqlari mahsus o‘quv kurslarida grafik asosida malaka oshirib kelmoqdalar.

“O‘zpaktsaonat” aksiyadorlik jamiyati bosh direktor o‘zining funksional vazifalaridan kelib chiqqan xolda boshqaruv tizimiga hamda uning barcha ish faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan masallarga javobgar shaxs xisoblanadi o‘zining qol sotidagi Ishlab chiqarish bo‘icha direktor ,xamda Moliya va investitsiyalar bo‘yicha direktorlarni funksional vazifalaridan kelib chiqqan xolda ishlarni topshiradi va ular bo‘yicha nazoratlar olib boradi .

Ishlab chiqarish bo‘icha direktor ishlab chiqarishga oid barcha ishlarga javobgar shaxs xisoblanadi, xududiy filiallarning Ishlab chiqarish bo‘icha direktor va paxta tozalash korxonalarining bosh muhandislariga sifatli qabul qilingan paxta xom-ashyosini qabul qilish xamda ishlab chiqarishga oid xarajatlarni tuzish va tasdiqlash bilan bog‘liq ishlarni tashkil etadi hamda qayta ishlashdan olingan birlamchi va ikklamchi tayyor maxsulotlarni saqlash sifatini nazorat qilish shunig bilan birgalikda teminlarga ortish nazorat qiladi.

Moliya va investitsiyalar bo‘yicha direktor o‘zining funksional vazifalaridan kelib chiqqan xolda boshqaruv xududiy filiallarning Moliya va investitsiyalar direktorga va paxta tozalash korxonalariga xabarlariga va bo‘lim boshliqlariga soxga oid ishlab chiqarish xarajatlar ish haqilar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar turli korxonalar va tashkilotlar bilan moliyaiy apratsiyalarni bajarilishi kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar ajratiladigan mabilag‘larni va kutilayotgan foydani taqsimlanishini nazorat qiladi.

Aksionerlar bilan korporativ muomala qilish xizmati o‘zining funksional vazifalaridan kelib chiqqan xolda xududiy filiallarga va paxta tozalash korxonalariga korporativ munasabatlarni va aksiyadorlar bilan bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar hamda



ularni sotish, sof foydadan chiqariladigan dividendlarni aksiyadorlar ulushlariga qarab taqsimlanishini nazorat qiladi.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshkarmasi funksional vazifalaridan kelib chiqqan xolda ishlab chiqarish xarajatlari hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni hisoblash va to'lab berish tartibini bugalteriya to'g'risidagi qonun asosida amalga oshiradi. Turli korxonalar va tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi korxonalarining byudjet va byudjetdan tashqari to'lovlarni hisoblanishini va to'lanishini nazorat qiladi

Ofis-menedjeri funksional vazifalaridan kelib chiqqan xolda ishlarni tashkil etish va turli korxonalar menedjerlari bilan shartnomalar tuzadi, soxaga oid yangi boshqaruv tizimini joriy qiladi.

Hududiy filial jamiyatning tijorat tashkiloti bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olishdir. O'z maqsadlariga erishish uchun amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyatni amalga oshiradi:

- paxta tozalash korxonalarini orqali paxta etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini va fermer xo'jaliklari bilan paxta xom ashyosini etishtirish va qayta ishlash bo'yicha kontraktatsiya shartnomalarini tuzishni tashkil etadi;

- tomonlarning kontraktatsiya shartnomalarini bajarishlarini va paxta tozalash korxonalarini tomonidan taqdim etiladigan qabul qilingan paxtaning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qiladi;

- o'z tarkibidagi paxta va paxta mahsulotlari kontraktatsiyasi va hisob-kitobi markazi (kelgusida Markaz) orqali "O'z paxtasanoat" aksiyadorlik jamiyatiga taqdim etish uchun paxta etishtiruvchi xo'jaliklar va paxta tozalash korxonalarini bo'yicha paxta xom ashyosini tayyorlashning borishi to'g'risidagi kunlik va yig'ma ma'lumotlarini tayyorlaydi;

- paxta tozalash korxonalarini tomonidan qabul qilingan paxta xom ashyosini yuzasidan rasmiylashtirilgan PK-17-son shakldagi qabul kvitantsiyalari nusxalarini Markaz orqali yig'adi va shu asosda umumlashtirilgan ma'lumotlar tayyorlaydi;

"O'z paxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati, statistika va boshqa tashkilotlarga taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javob beradi.

Paxta tozalash korxonalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va PK-17-son shakldagi qabul kvitantsiyalariga asosan paxta etishtiruvchi xo'jaliklar bilan paxta tozalash korxonali orqali hisob-kitob qilish uchun belgilangan tartibda Jamg'armaga buyurtmanomalar beradi.

Jamg'armadan o'zining maxsus hisob raqamlariga olingan mablag'lar hisobidan paxta tozalash korxonalarining maxsus hisob raqamlari orkali kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq paxta etishtiruvchi xo'jaliklarga, topshirilgan paxta xom ashyosi miqdoriga, shu jumladan terim uchun kabul xujjatlariga asosan belgilangan tartib asosida haq to'lanishini ta'minlaydi.

Paxta mahsulotlarini eksportga va respublikadagi iste'molchilarga etkazib berish yuzasidan ular bilan Jamg'armadan olingan mablag'larning o'rni qoplanishini nazarda tutib, o'zaro hisob-kitob qilgan holda paxta tozalash korxonalari bilan shartnomalar tuzish.

## **II bob bo'yicha xulosa**

Birinchiidan, Korxonaning samaradorligini yaxshilash, shuningdek sof foyda miqdorini oshirish uchun davr harajatlari, ma'muriy harajatlar singari harajatlarni kamaytirish hamda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida asosiy fondlarni yangilash, texnologik qayta jihozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchiidan; Korxonaning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi javobgarligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanishi lozim. Bunda quyidagi yo'nalishlar ahamiyatlidir:

- ustav fondini oshirish;
- qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish;
- korxonaning aksiyalarining investorlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini takomillashtirish;

- jamiyat aksiyadorlari, kuzatuv kengashi a'zolari va ijrochi organlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan ichki korporativ munosabatlarni shakllantirish;

- aksionerlik jamiyati boshkaruv jarayonidagi ma'lumotlarning ochiqlik darajasini, shuningdek aksionerlik jamiyati boshkaruv organlarining hissadorlar yoki aksiyadorlar oldida muntazam ravishda hisobot berib borishini ta'minlash;

- ichki audit ishini yaxshilash va takomillashtirish zarur.

- Uchinchidan ; aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv va boshqaruv funksiyalarga jaratilishini quydagicha ko'rishimiz mumkin.

- o'z mulkinging joriy boshqaruvida shaxsan qatnashishdan o'z hohishi bilan voz kechgan mulkdorlar(aksiyadorlar);

- jamiyat mulkiga egalik qilmaydigan va begona mulkni boshqaradigan yonlanma menejerlar.

### III BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

#### 3.1 Aksiyadorlik jamiyatida dividendni oqilona joriy tashkil etish yo‘lanishlari

Dividend – bu aksionerlarning pul daromadi hisoblanadi va o‘z mablag‘larini aksiyasiga jalb qilgan kompaniyaning ijobiy ishlayotganligi to‘g‘risida ma’lum bir darajada xabar berib turadi. Hisobot davrining foydasini taksimlashning soddalashtirilgan yo‘nalishlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

- foydaning bir qismi dividendlar ko‘rinishida to‘lanadi;
- qolgan qismi esa kompaniyaning aktivlariga qayta investitsiyalanadi.

Foydaning qayta investitsiya qilingan qismi kompaniyaning faoliyatini moliyalashtirishning ichki manbasi hisoblanadi, shundan ko‘rinib turibdiki, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatida jalb qilinayotgan va moliyalashtirishning tashqi manbalari miqdoriga ma’lum darajada ta’sir qiladi.

Dividendlarning irrelevantlilik nazariyasi (Dividend Irrelevance Theory) F.Modilyani va M.Miller tomonidan ishlab chiqilgan. 1961 yili chop etilgan maqolasida dividend miqdori kompaniyaning foydasini ishga solish imkoniyatidagi aniqlangan aksionerlarning yalpi boyligining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatmaydi va foydaning dividendlarga to‘langan va qayta moliyalashtirishga taqsimlangan nisbatidan qa’tiy nazar investitsion siyosatining to‘g‘ri-noto‘g‘rililiga bog‘liq bo‘ladi. Aniqrog‘i, kompaniyaning qiymatini oshirishning omili sifatida muqobil dividend siyosatining mavjudligi mumkin emas. Modilyani va Millerning fikrlash logikasi quyidagicha. Agar kompaniya **P** foydasiga ega bulsa va uni **IP** loyixasiga investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa quyidagi variantlarning birini tanlashi mumkin:

- a) foydani to‘liq reinvestitsiya qilish;
- b) hamma foydani dividendlarga to‘lash va qo‘shimcha aksiyalarni emissiya qilish hisobiga loyixalarni moliyalashtirish;
- v) foydaning bir qismini dividendlarga to‘lash, ko‘shimcha aksiyalarni chiqarish hisobiga ketgan mablag‘larning o‘rnini to‘ldirish va loyixani ikkita manba hisobiga moliyalashtirish

Aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini ishlab chiqish korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi mulkdorlar tomonidan foydaning joriy iste'mol qilinishi va uning kelajakdagi o'sishi o'rtasida optimal mutanosiblikni o'rnatishdan iborat. Dividendlar sohasidagi siyosatni kuzatuv kengashi shakllantiradi. Shuni nazarda tutish lozimki, aksiyalarni xarid qilishdan asosiy maqsad dividendlar olish hisoblanadi.

Dividend - aksiya egasi oladigan daromad turi. Biroq u jiddiy texnik ko'rsatkich ham hisoblanadi, ya'ni uning yordamida boshqa miqdorlar, shu jumladan, aksiyalarning narxlari hisoblab chiqiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatuvchi ko'plab tahliliy agentliklar qaysi aksiyadorlik jamiyatlar real dividend to'lovlarini amalga oshirayotganligi haqidagi axborot materiallarini davriy ravishda chop etib borishadi. Bunda qimmatli qog'ozlarning real daromad keltirish miqdorlari tahlil qilinadi. Olingan raqamlar ancha uzoq vaqt mobaynida aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ahvolidan indikator hisoblanadi. Bundan tashqari, turli xildagi reytinglarni tuzish, odatda, tashqi mezonlarga asoslanadi va dividendi stavkasi ana shunday mezonlardan biridir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda dividend to'lovlarining tartibi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Unda ayrim cheklovlar belgilangan. Mazkur qonunga muvofiq dividendlarni joriy yilning sof foydasidan to'lash mumkin. Bu aksiyadorlik jamiyatning dividend siyosatini amalga oshirish imkoniyatini qisqartiradi.

Qonunga muvofiq aksiyadorlik jamiyati:

- jamiyat ustav fondining hammasi to'lab bo'linguncha;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) belgilari bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida jamiyatda shunday belgilar yuzaga kelsa;
- jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav va zaxira fondlari mablag'idan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

Qonunda belgilanishicha, agar imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun etarli foyda mavjud bo'lsa, aksiyadorlik jamiyati aksiyalar egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Foyda etarli bo'lmagan yoki jamiyat zarar ko'rib ishlagan hollarda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar faqat ushbu maqsad uchun tashkil etilgan jamiyat ustav fondining hisobidan hamda uning miqdori chegarasida to'lanishi mumkin.

Chet el mutaxassislarining fikricha, tahliliy tadqiqotlarga asoslanib ishlab chiqilgan dividend sohasidagi siyosatga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi har qanday aksiyadorlik jamiyat sarmoyadorlarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi, chunki bunda kompaniya harakatlarini oldindan baholash va aksiyadorlar daromadlarini rsjalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosatining shakllanishiga doir ko'plab nazariy tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu borada *qoldiq tamoyili bo'yicha dividendlarni hisoblash nazariyasi (Modilyani-Miller nazariyasi)* eng keng tarqalgan nazariya hisoblanadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, dividendlarni to'lash fondi foyda hisobidan aksiyadorlik jamiyatning investitsiya imkoniyatlari to'lig'icha amalga oshishini ta'minlovchi moliyaviy resurslariga bo'lgan ehtiyoj qondirilganidan so'ng aniqlanadi. O'z navbatida, dividendlar faqat sof foyda hisobidan barcha investitsiya loyihalari moliyalashtirilgan bo'lsa to'lanadi. Agar sof foydani qayta taqsimlash va yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'lsa, u holda dividendlar to'lanmaydi. Aksincha, agar aksiyadorlik jamiyatda moliyaviy xolatidan kelib chiqqan holda sof foyda to'liq hajmda dividendlarni to'lash uchun yo'naltiriladi.

Dividend siyosatidagi mavjud nazariyalarda asosan sarmoyadorlar hamma vaqt dividendlarni aksiyalarning kurs narxi o'sishidan olinishi mumkin bo'lgan daromadlardan afzal ko'rishadi. Ushbu nazariyadan kelib chiqqan holda, dividend to'lovlarini ko'paytirish foydani kapitallashtirishga qaraganda afzalroq. Ularning hisoblashlaricha, joriy dividend to'lovlari mazkur aksiyadorlik jamiyat aksiyalariga investitsiyalashning foydaliligi nuqtai nazaridan sarmoyadorlarning ikkilanishlari darajasini pasaytiradi, bu aksiyadorlik sarmoyasi bozor qiymatining oshishiga olib

keladi. Aksincha agar dividendlar to‘lanmasa, u holda ikkilanish darajasi ortadi, daromadning zarur aksiyadorlik me‘yori ko‘payadi, bu hol aksiyadorlik sarmoyasi bozor qiymatining pasayishita olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatning dividend siyosatini belgilab beruvchi boshqa nazariyalar ham ishlab chiqilgan. *Dividendlarni kamaytirish nazariyasi* shundan iboratki, dividend siyosatining samaradorligi aksiyadorlarning joriy va bo‘lajak daromadlari bo‘yicha soliq to‘lovlarini kamaytirish mezoni bilan belgilanadi. Dividendlar ko‘rinishidagi joriy daromadlarning soliqqa tortilishi har doim yuqori bo‘lishi tufayli dividend siyosati dividend to‘lovlarining kamayishini va o‘z navbatida - kapitallashtiriladigan foydaning ko‘payishini ta‘minlashi kerak. Bu mulkdorlar daromadining soliqdan himoyalanihini ta‘minlaydi. Biroq bunday yondashuv daromadlarining darajasi past bo‘lgan ko‘p sonli aksiyadorlarni qanoatlantirmasligi mumkin, ular uchun dividendlarning joriy tushumi zarur.

*Dividendlarning joriy etish nazariyasi* shunga asoslanadiki, aksiyalarning joriy bozor qiymatini baholashning asosiy modellari boshlang‘ich element sifatida to‘lanadigan dividendlar miqdoridan foydalanadi. O‘z navbatida, dividend to‘lovlari darajasining o‘sishi aksiyalarning fond bozorida kotirovka qilinadigan bozor qiymatining avtomatik tarzda oshishini ta‘minlaydi. Bunday aksiyalarni sotishda aksiyadorlar qo‘shimcha daromad oladilar. Bundan tashqari, yuqori miqdordagi dividendlarning to‘lanishi aksiyadorlik jamiyat ko‘tarilish pallasida turganligidan va kelajakda foydaniig sezilarli darajada o‘sishi kutilayotganligidan dalolat beradi. Ushbu model fond bozorining barcha ishtirokchilari axborotdan teng sharoitda foydalanishini talab qiladi hamda aksiyalar bozor qiymatining o‘zgarib turishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha nazariyalar o‘zaro bog‘langan va aksiyadorlarning umumiy daromadi ko‘payishi, aksiyadorlik jamiyatning joriy hamda investitsiya faoliyatining etarlicha moliyalanishini ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Ushbu nazariyalarning amaliyotda qo‘llanishi aksiyadorlik jamiyatning dividend siyosatini tanlashiga nisbatan uchta yondashuvni shakllantirish imkonini

berdi: 1.konservativ, 2.murosali, 3.tajovuzkor. Ushbu yondashuvlarning har biriga dividend siyosatining malum bir xili mos keladi (3.1-jadval)<sup>19</sup>.

### 3.1-jadval

#### Aksiyadorlik jamiyatning dividend siyosatini tanlashga nisbatan asosiy yondashuvlar

<b>Dividend siyosatini shakllantirishga nisbatan yondashuvlar</b>	<b>Foydalaniladigan dividend siyosatining variantlari</b>
I. Konservativ yondashuv	1. Dividend to'lovlarining qoldiq siyosati 2. Dividend to'lovlarining barqaror miqdori siyosati
II. Murosali yondashuv	3. Alohida davrlarda ustama xaqi to'lanishi bilan dividendlarning eng kam barqaror miqdori siyosati
III. Tajovuzkor yondashuv	4. Dividendlarning barqaror darajasi siyosati 5. Dividend miqdorining doimiy oshishi siyosati

Odatda, dividend siyosatini shakllantirishga nisbatan *konservativ yondashuv* chog'ida dividend to'lovlarining qoldiq siyosati yoki dividend to'lovlarining barqaror miqdori siyosatidan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, dividend to'lovlarining *qoldiq siyosati* shundan iboratki, dividendlar sof foydani kapitallashtirish (qayta investitsiyalash)ning barcha ehtimoliy variantlari ko'rib chiqilganidan so'ng hisoblanadi. Mazkur siyosatning ustunligi shundaki, u aksiyadorlik jamiyatning yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash bilan birga, uning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Ushbu siyosatning kamchiligi esa dividend to'lovlari miqdorining beqarorligi, keyingi davrda ularniig miqdorini to'liq oldindan aytib bo'lmasligi, hatto, yuqori investitsion imkoniyatlar davrida ham ularni to'lashdan voz kechilishi mumkinligidan iborat. Odatda, bunday dividend siyosati aksiyadorlik jamiyat hayotiy davrining yuqori darajadagi investitsiya faoliyati bilan bog'liq dastlabki bosqichlarida qo'llaniladi.

<sup>19</sup> Hoshimov A.A. O'zbekistonda integratsiyalashgan korporatsiyalarni boshqarish.-T.:”Fan”, 2012-b



Dividend siyosatini belgilashda yana shuni hisobga olish lozimki, «Aksiyalar kursi dividendga to'g'ri proporsional va muqobil kapital quyilmalarga teskari proporsional» klassik formula amaliyotining barcha holatlarida ham qo'llanilmaydi. Agar sarmoyadorlar aksiyadorlik jamiyatning rivojlanish istiqbollari, to'lovning pasayishi yoki to'lamaslik sabablari hamda sof foydani qayta investitsiyalash yo'nalishlari haqida to'g'ri xabardor etilsa ular, hatto, dividendlar to'lanmasa ham ushbu korporatsiyaning aksiyalarini yuqori baholashlari mumkin.

**Dividend to'lovlarining barqaror miqdori siyosati** uzoq vaqt mobaynida ularning o'zgarmas summasini to'lashni nazarda tutadi (inflyatsiya sur'atlari yuqori bo'lganda dividend to'lovlarining summasi inflyatsiya indeksiga to'g'rilanadi). Ushbu siyosatning ustunligi uning ishonchliligi hisoblanadi, u aksiyadorlarga turli holatlardan qat'iy nazar, joriy daromad miqdorining o'zgarmasligiga ishonch hissini uyg'otadi, fond bozorida aksiyalarning barqarorligini belgilab beradi. Mazkur siyosatning kamchiligi esa uni aksiyadorlik jamiyat faoliyatining moliyaviy natijalari bilan zaif aloqasida, shu munosabat bilan noqulay kon'yunktura yoki shakllanayotgan foydaning miqdori past bo'lgan davrlarda investitsiya faoliyati amalga oshirilmasligi mumkin. Ana shunday salbiy oqibatlarga yo'l qo'ymaslik uchun dividend to'lovlarining barqaror miqdori, odatda, nisbatan past darajada belgilanadi, bu ushbu turdagi dividend siyosatini aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy barqarorligi pasayishi xatarini kamaytiruvchi konservativ siyosat toifasiga kiritadi. Yuzaga kelgan vaziyatda bunday dividend siyosatini mamlakatimizning bir qator foyda ko'rib ishlayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida ham qo'llash mumkin.

Mazkur siyosatning asosiy kamchiligi shundan iboratki, uzoq vaqt davomida kam miqdorda dividendlar to'lanishida kompaniya aksiyalarining investitsion jozibadorligi pasayadi va o'z navbatida, ularning bozor qiy-mati ham tushib ketadi.

Dividend siyosatini tanlashga nisbatan murosali yondashuvga alohida davrlarda ustama haqi to'lanishi bilan dividendlarning eng kam barqaror miqdori siyosati (yoki «*Ekstra-dividend*» siyosati) mos keladi va bu siyosat ham kam

miqdordagi dividendlar to‘lanishini nazarda tutadi. Biroq, xo‘jalik kon’yunkturasi qulay bo‘lgan davrlarda dividendlar oshirilishi mumkin. Bunday dividend siyosatini foydani shakllantirishda beqaror dinamikaga ega bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Dividend siyosatini shakllantirishga nisbatan «*tajovuzkor yondashuv*»ga dividendlarning barqaror darajasi siyosati va dividendlar miqdorining doimiy oshishi siyosati mos keladi.

Dividendlarning barqaror darajasi siyosati foydaga nisbatan dividend to‘lovlarining uzoq muddatli me‘yoriy koeffitsienti belgilanishini nazarda tutadi.

*Dividendlar miqdorini doimiy oshirish siyosati* bir aksiyaga hisoblanganda dividend to‘lovlari darajasining oshishini nazarda tutadi.

Bunday siyosatni qo‘llashda dividendlarni ko‘paytirish, odatda, o‘tgan davrda ularning miqdoriga nisbatan o‘shishning qat’iy belgilangan foizida amalga oshiriladi. Ushbu siyosatning ustunligi kompaniya aksiyalari bozor qiymatining yuqori bo‘lishini ta‘minlash va qo‘shimcha emissiyalar chog‘ida potentsial sarmoyadorlarda uning ijobiy nufuzini shakllantirish hisoblanadi. Mazkur siyosatning kamchiligi esa uni amalga oshirishda qayishqoqlikning mavjud emasligi va moliyaviy keskinlikning doimiy ravishda oshib borishidan iborat. Agar dividend to‘lovlari fondi foyda summasiga qaraganda tezroq o‘ssa, korxonaning investitsion faolligi qisqaradi, moliyaviy barqarorlik koeffitsienti esa pasayadi. Shuning uchun bunday dividend siyosatini faqat real rivojlanayotgan aksiyadorlik kompaniyalari amalga oshirishi mumkin agar ushbu siyosat kompaniya foydasining doimiy o‘shishi bilan mustahkamlanmasa u bankrotlikga olib kelishi tayin.

Shuni ta‘kidlash joizki, agar kompaniyani moliyalash manbasi aksiyalarning qo‘shimcha emissiyasidan olingan daromad hisoblangan keng ko‘lamli investitsiya dasturini amalga oshirishni (ishlab chiqarishni rekonstruksiyalash va b.) ko‘zlasa, u holda bunday emissiya ancha yuqori dividendlarni to‘lashdan oldin amalga oshirilishi kerak. Faqat ana shu holatda aksiyalarning yuqori kursi va ularni tegishlicha joylashtirishdan olinadigan barqaror daromad kafolatlanishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatning dividend siyosatini tashkil etish va olib borishni quyidagi izchillikda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- dividend siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari baholash;
- dividend siyosatining xilini tanlash;
- dividend siyosatining tanlangan xiliga muvofiq foydani taqsimlash mexanizmini aniqlash;
- bir aksiyaga dividend to'lovlarini hisoblash;
- dividendlarni to'lashning eng maqbul shaklini tanlash.

Dividend siyosatining shakllanishini belgilab beruvchi omillarning asosiy guruhiga kompaniyaning *investitsiya ehtiyojini tavsiflovchi omillarni* kiritish lozim.

Ularga:

- kompaniya hayotiy davrining bosqichi;
- kompaniya o'z investitsiya dasturlarini kengaytirishi zarurati;
- yuqori darajadagi samaradorlikga ega bo'lgan investitsiya loyihalarining mavjudligi kiradi.

Aksiyadorlik jamiyat hayotiy davrining dastlabki bosqichlarida u katta miqdordagi mablag'larni o'zining rivojlanishi uchun sarflashga majburligi bois, dividendlar to'lashni chegaralashga majbur. Foydani sarmoyalashga bo'lgan ehtiyoj ham asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsion faoliyatni faollashtirish davrlarida ortishi mumkin, bu ham dividendlar to'lovlarini qisqartirishni talab qiladi.

Tayyorlangan alohida loyihalar yuzaga kelgan bozorning qulay kon'yunkturasida samarali ekspluatatsiyani taminlash uchun jadal amalga oshirilishni talab etadigan davrlar ham uchraydi. Bu o'z moliyaviy mablag'larini mazkur loyihalarga yo'naltirishni talab qiladi va ushbu davrlarda dividend to'lovlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosatining tashkil etish yo'nalishlari tahlili bilan bir qatorda, muqobil manbalardan moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatlarini ham tahlil qilish zarur.

Ularga quyida-gilar kiradi:

- o'tgan davrda shakllangan o'z sarmoyasi zaxiralarining etarlicligi;

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi hisobidan qo'shimcha sarmoyani jalb etish qiymati;

- qo'shimcha qarz sarmoyasini jalb etish qiymati;

- moliya bozorida kreditlardan foydalanish imkoniyati;

- kompaniyaning joriy moliyaviy faoliyati bilan aniqlanadigan kreditga layoqatlilik darajasi.

Aksiyadorlik jamiyat shakllantirishda ilgari olingan kreditlar bo'yicha to'lovlarning kechiktirib bo'lmazligi omilini ham ko'rib chiqish lozim, to'lov qobiliyatini ushlab turish dividend to'lovlarning o'sishiga qaraganda ancha ustuvor vazifa hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar va aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy strategiyasi tahlilining natijalari asosida dividend siyosati xili tanlanadi. Biroq, bu erda shuni nazarda tutish lozimki, dividendlarning eng kam miqdori har doim uning yo'qligidan ko'ra afzal. Fond bozori hali yaxshi rivojlanmagan O'zbekistondagi hozirgi sharoitda aksiyadorlarning ko'pchiligi kelgusida aksiyalar kurs qiymatining oshishi ko'rinishida potentsial daromadga real to'lovlarni olishni afzal ko'rishadi.

Dividend siyosatining xilini tanlash kompaniya erishishni ko'zlagan maqsadga bog'liq. Ayrim hollarda dividend to'lovlarning barqaror miqdorini ushlab turish foydadan xoli bo'lmaydi. Bunday yondashuvning afzalligi shundan iboratki, aksiyador ma'lum bir vaqt mobaynida qimmatli qog'ozlar bo'yicha qat'iy belgilangan daromadni olishini oldindan biladi.

Dividend siyosatini tashkil etishda hamda amalga oshirishning yaquniy bosqichi kuzatuv kengashi tomonidan dividendlarni to'lash siyosatini tashkil etish quyidagilardan iborat:

1. Dividendlarni naqd pulda to'lash. Bu dividend to'lovlarning eng sodda va keng tarqalgan shakli.

2. Dividendlarni aksiyalar bilan to'lash. Ushbu shakl aksiyadorlarga dividendlar summasidagi yangi chiqarilgan aksiyalarning takdim etilishini nazarda tutadi. Bunday shakl keyingi davrda aksiyadorlik sarmoyasining o'sishini

ko'zlovchi aksiyadorlarda qiziqish uyg'otadi. Joriy daromadni afzal ko'ruvchi aksiyadorlar esa qo'shimcha aksiyalarni fond bozorida sotish huquqiga ega.

3. Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

### **3.2 Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning takomillashtirish yo'llari**

O'zbekistonda olib borilayotgan keng islohotlar mamlakatda ijtimoiy yo'nalishlaridan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy mahsulotlaridan biri tez suratlarda rivojlanayotgan turli mulkchilik shakllaridan korxonalar hisoblanadi. Ularning samarali faoliyatini ko'p jihatdan korporativ boshqaruv munosabatlar tizimi rivojlanishiga bevosita bog'liqligi sababli hozirda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning korporativ sektorining alohida o'rnini mavjudligi bilan bir qatorda ushbu mulkchilik shaklining rivojlanishi jarayonida ayrim muammolar mavjudki, ularning hal etilishi nafaqat sohaning taraqqiyoti uchun, balki iqtisodiyot barqarorligi uchun ham ahamiyatlidir.

Keyingi yillardagi milliy korxonalarni isloh etish natijasida korporativ sektor iqtisodiyotidagi umumiy muammolar bevosita mulkdorlar, aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi manfaatlar qaramaqarshiliklarini o'zida ifodalovchi korporativ boshqaruv tizimidagi mavjud muammolarga ham bevosita bog'liq bo'lmoqda. Buni hususiyashtirishdan so'nggi biznes muhitida "xo'jalik demokratiyasi"ni shakllantirish bilan bog'liq iqtisodiy va huquqiy hamda ijtimoiy muammolar ta'sirida hamon mahalliy aksiyadorlik korxonalarida yuqori korporativ madaniyatning shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq islohotlar yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan korporativ boshqaruv tizimini amalga oshirish yirik masshtabdagi kapitalni jalb qilishni talab etiladi. Bunday yirik va strategik

ahamiyaga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning manbalari tarkibidagi an'anaviy yo'nalishlardan biri qimmatli qog'ozlarni moliyaviy bozorlarga joylashtirish hisoblanib, aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarining ushbu yo'nalishdagi mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari investorlar ishonchining pastligi tufayli cheklanib qolinmoqda.

Bunga asosiy ta'sir etuvchi omil nafaqat korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining samaradorligi ta'sir etmoqda, balki asosiy ta'sir etuvchi omil sifatida emitent korxonalar aksiyalariga quyilma qiluvchi hissadorlar va ayniqsa, yangi hissadorlar uchun huquqlari cheklanishi bilan bog'liq investitsion xatarlarning mavjudligi hisoblanadi. Xususan, ijro etuvchi direktor va hissadorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda manfaatlar muvozanatining buzilish holatlarining mavjudligi aksiyadorlik jamiyatlariga va ayniqsa, paxtasanoat tarmog'idagi aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalar oqimining nisbatan cheklanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanmoqda. Ayrim iqtisodchi olimlarning fikricha, aksiyadorlar paketiga egalik qiluvchi aksionerlar va menejerlar o'rtasidagi amaldagi munosabatlarning shaffofligi etarli emas va amaldagi qonunchilik investorlar huquqlarini etarli darajada himoya qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida shakllantirilgan korporativ boshqaruv tizimi bir tomondan moliyaviy bozorlarning etarli darajada rivojlanmaganligi, ikkinchi tomondan, aksiyadorlarning insayderlik nazoratiga qarama-qarshi harakatining asosiy usuli sifatida shakllantirilgan kapitallarning yuqori darajadagi kontsentratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi.

Optimal korporativ boshqarish tizimi har qanday korxonalarda tashkil etilishi mumkin. Lekin, bunday tizim uchun yirik vertikal integral korporativ tuzilmalarning imkoniyatlari nisbatan yuqoridir. Shu nuqtai nazardan mahalliy korporativ mulkchilikga asoslangan xo'jalik subyektlarimizda korporativ boshqarish tizimi samardorligini oshirishga qulay shart-sharoitlar mavjuddir. Chunki, respublikamizda amalga oshirilgan davlat tasarrufidan chiqarish va hususiy lashtirish siyosati natijasida deyarli iqtisodiyotning tayanch tarmog'idagi korxonalar yirik vertikal integral tashkiliy tuzilmalarga aylantirilgan. Ushbu

aksiyadorlik jamiyatlariga jami aksiyadorlik jamiyatlariga to'g'ri keladigan aktivlarning salmoqli qismi to'g'ri keladi. Shuningdek, ushbu korporativ tuzilmalarda davlat ulushi yuqori bo'lib, ular bo'yicha davlatning ishonchli vakillari tayinlanadi va ishonchli boshqaruvchilarga boshqarishga beriladi. Ishonchli boshqaruvchilar faoliyatining amaldagi holati tasdiqlaydiki, ularning samarali faoliyatiga quyidagi omillar ta'sir etmoqda:

- strategik ahamiyatga ega bo'lgan soha va tarmoqlardagi biznesda davlat ishtirokini ta'minlash bosh maqsad bo'lsada, uning manfaatlari aniq belgilangan;

- yuklatilgan vazifalarni samarali boshqarish natijalariga asoslangan holda rag'batlantiruvchi mexanizmlarning etarli darajada emasligi;

- kompetentsiyaning etishmasligi, ya'ni kadrlar bo'shlig'ining mavjudligi va mavjud kadrlarda korporativ boshqarish asoslari, vakolat va majburiyatlarini hamda professional bilim va malakaning etishmasligi kabi omillar ta'sir etmoqda.

Korporativ boshqaruvning kompleks mexanizmi: korporativ strategiya, korporativ madaniyat, moliyaviy va axborot shaffofligi, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa qimmatli qog'ozlar egalari huquqlarini himoya qilish tizimining mavjudligi kabi tarkibiy elementlarni o'z ichiga olib, ularning har biri korporativ boshqaruvni takomillashtirish uchun ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlari korporativ mulkchilik sharoitida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari tomonidan strategik boshqaruv tizimini shakllantirishga shart-sharoit yaratmoqda. Lekin, zamonaviy sharoitlarda jamoa a'zolari, menejerlar, tarkibiy tuzilmalar hamjihatligi va kelishuvini tartibga soluvchi qoida va me'yorlarni o'zida mujassamlashtiruvchi korporativ madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar mavjuddir.

Korporativ madaniyatning asosiy komponentlari quyidagilardan iboratdir: liderlikning qabul qilinadigan tizimi, ixtiloflar hal qilishning yo'nalishlari va uslublari, kommunikatsiyaning amaldagi tizimi.

Zamonaviy rahbarlar va boshqaruvchilar korporativ madaniyatni o'zining bo'limlari va tashkiliy birliklarini yagona maqsadda jamlash, tashabbuskor

xodimlar faolligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan kuchli strategik instrumenti sifatida qaraydilar. Ular o'z kompaniyalarining korporativ madaniyatini shakllantirishga harakat qiladilar.

Bizning fikrimizcha, hozirgi sharoitda aksariyat yirik aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat rivojlanib borayotgan bo'lsada, ularni jamiyat hayotiagi ta'sirchanligi sezilarli emasdir. Korporativ madaniyatni rivojlantirish orqali nafaqat kompaniya nufuzi ko'tarilishiga erishiladi, balki, uning aksiyadorlari, menedjerlari va mehnat jamoasi a'zolari o'rtasidagi ixtiloflar ham bartaraf etiladi, sog'lom muhitning vujudga kelishi ular taraqqiyotining bosh omiliga aylanadi.

Aksariyat holatlarda korporativ boshqaruv tizimi samaradorligiga moliyaviy va axborot shaffofligi ta'sir etuvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday muammolarning vujudga kelishini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkora e'lon qilinmasligi;

moliyaviy bozorlar axborot infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmaganligi;

- amaldagi moliyaviy hisob tizimi va moliyaviy hisobotlardagi mavjud ma'lumotlardan keng investorlar jamoatchiligining foydalanishlari bilan bog'liq muammolar.

Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarini investorlarga to'laqonli va o'z vaqtida etkazilishi ularning investitsion jozibadorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, aksiyalar va ular bo'yicha to'lanadigan dividendlar to'g'risida keng investorlar tomonidan etarli ma'lumotlarni olishlari uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro andozalari ilovalariga muvofiq bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromadlilik hisobotini amaldagi moliyaviy hisobotlarga ilova shaklida kiritish maqsaga muvofiqdir. Bu o'z navbatida, mavjud investorlarning qonunda belgilangan aksiyalari bo'yicha nomulkiy huquqiy hisoblanuvchi axborot olish huquqining samarali ijrosini ta'minlaydi.



Shuningdek, mavjud moliyaviy hisobotlarning takomillashuvi korporativ boshqaruvning funksional elementi bo'lgan korporativ nazoratning ma'lumotlar bazasi yaxshilanishiga olib keladi. Ma'lumki, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlari biznes qiymatini baholash va korporativ nazoratni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarida uzluksiz e'lon qilinadigan xolis reyting agentliklari axborotlari muhim o'rin tutadi.

Bizning fikrimizcha, ham moliya bozori infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi shunday xolis reyting agentliklari faoliyatini rivojlantirish zarur. Ushbu reyting agentliklari aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini kompleks baholash tizimida ulardagi korporativ boshqaruv samaradorligi reytingini ham baholaydilar va e'lon qiladilar.

Iqtisodiyotda turli mulkchilik shakllari o'rtasida aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tuzilmasi tarkibi, rivojlanishning bosh strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda vakolat va mas'uliyatlarning o'ziga xosligi aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish masalalariga alohida yondashishni talab qiladi.

Paxatsanoat tarmog'idagi mulkchilik shakllari o'rtasida aksiyadorlik jamiyatlari yirik ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonini zarur darajada moliyalashtirishga ko'maklashish, xalqaro sifat talablariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish kabi jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqarish tizimini tashkil etish boshqa mulkchilik shakllariga nisbatan bir qator farqli jihatlarga ega . Olib borilgan ilmiy tatqiqotlar natijasiga ko'ra paxatsanoati tarmog'idagi aksiyadorlik jamiyatlarida boshqarishning boshqa mulkchilik shakllariga nisbatan farqlarining qiyosiy tahlilini taklif etamiz.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yirik ishlab chiqarishga asoslangan va strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarda aksiyadorlik jamiyatlari mulkchilikligiga asoslangan shakli maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday mulkchilik shaklida Bozor munosabatlari sharoitida korporativ

boshqaruvning oshkora tizimi xorijiy investorlarni, birinchi galda, sanoatning bazaviy tarmoqlariga jalb qilishning hal qiluvchi omiliga aylanadi.

Xech bir davlat samarali kompaniyalar va korxonalarsiz farovonligini o‘stirish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish uchun zarur sharoitlarni yarata olmaydi. Har bir mamlakatga mukammal boshqaruv tizimiga ega korxonalar kerak, zero ular investitsiyalarni jalb qila oladi, ish o‘rinlarini yaratadi, moddiy qimmatliklarni ishlab chiqaradi va shu bilan birga, jahon bozorida hayotchanligini, raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Shu sababli yuqori darajada tashkil qilingan korporativ boshqaruv milliy iqtisodiyotni rivojlantirining zaruratiga aylanadi.

Shunday qilib, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora tadbirlar mamlakatimizning umumiy iqtisodiy holatiga o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatgan holda asosiy ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlarida manfaatlar muvozanati ta‘minlanishiga olib kelishi mumkin.

### **III bob bo‘yicha xulosa**

Bozor iqtisodiyoti sharoitda aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini ishlab chiqish korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi mulkdorlar tomonidan foydaning joriy iste‘mol qilinishi va uning kelajakdagi o‘sishi o‘rtasida optimal mutanosiblikni o‘rnatishdan iborat. Dividendlar sohasidagi siyosatni kuzatuv kengashi shakllantiradi. Shuni nazarda tutish lozimki, aksiyalarni xarid qilishdan asosiy maqsad dividendlar olish hisoblanadi.

Birinchi dan keyingi yillardagi milliy korxonalarini isloh etish natijasida korporativ sektor iqtisodiyotidagi umumiy muammolar bevosita mulkdorlar, aksiyadorlar va menejerlar o‘rtasidagi manfaatlar qaramaqarshiliklarini o‘zida ifodalovchi korporativ boshqaruv tizimidagi mavjud muammolarga ham bevosita bog‘liq bo‘lmoqda. Buni hususiy lashtirishdan so‘nggi biznes muhitida “xo‘jalik demokratiyasi”ni shakllantirish bilan bog‘liq iqtisodiy va huquqiy hamda ijtimoiy

muammolar ta'sirida hamon mahalliy aksiyadorlik korxonalarida yuqori korporativ boshqaruvni shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin.

Ikkinchidan bizning fikrimizcha, hozirgi sharoitda aksariyat yirik aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlanib borayotgan bo'lsada, ularni jamiyat hayotiagi ta'sirchanligi sezilarli emasdir. Korporativ boshqaruvni rivojlantirish orqali nafaqat kompaniya nufuzi ko'tarilishiga erishiladi, balki, uning aksiyadorlari, menedjerlari va mehnat jamoasi a'zolari o'rtasidagi ixtiloflar ham bartaraf etiladi, sog'lom muhitning vujudga kelishi ular taraqqiyotining bosh omiliga aylanadi.

Uchinchidan korporativ boshqaruvning kompleks mexanizmi: korporativ strategiya, korporativ boshqaruvni, moliyaviy va axborot shaffofligi, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa qimmatli qog'ozlar egalari huquqlarini himoya qilish tizimining mavjudligi kabi tarkibiy elementlarni o'z ichiga olib, ularning har biri korporativ boshqaruvning samaradorligi uchun ahamiyatlidir.

Korporativ boshqaruvning kompleks mexanizmi: korporativ strategiya, korporativ boshqaruvni, moliyaviy va axborot shaffofligi, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa qimmatli qog'ozlar egalari huquqlarini himoya qilish tizimining mavjudligi kabi tarkibiy elementlarni o'z ichiga olib, ularning har biri korporativ boshqaruvning samaradorligi uchun ahamiyatlidir.

## XULOSA

1. Boshqaruv muammolari murakkablashuvidagi sifat bosqichi ko'p sonli aksiyadorlarga va murakkab tarkibga ega bo'lgan yirik kompaniyalar (aksiyadorlik jamiyatlari, xoldinglar, moliya-sanoat guruhlarining)ning shakllanishi natijasida yuz berdi.

Aksiyadorlik jamiyat yuridik shaxsni ta'sis etish yoki qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) yo'li bilan tashkil etilishi mumkin.

2. Jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi va muassis tomonidan jamiyatning aksiyalari haqini to'lash uchun kiritilayotgan qimmatli qog'ozlarning, o'zga mulkiy huquqlarning yoki pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan boshqa huquqlarning pulda ifodalangan bahosini tasdiqlash haqidagi qarorlar muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Kompaniya mulkdorlari sifatida mulkni joriy boshqarishda bevosita shaxsiy ishtirok etishdan voz kechgan investitsiya va pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari singari yirik sarmoyadorlar paydo bo'ldi. Shuning uchun professional yollanma boshqaruvchilar kompaniyalarni boshqarishda muhim rol o'ynay boshladi. Bundan tashqari, so'nggi vaqtlarda korporativ mulkdan foydalanish jarayonida mulkdori bo'lmagan, lekin u yoki bu tarzda unga aloqador shaxslar va tashkilotlar (kompaniya xodimlari, xududiy hokimiyat va b.) faol rol o'ynashga urinmoqda.

3. Korporativ boshqaruvning asosiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining faoliyatga jalb etilgan turli shaxslar mafaatlari muvozanatini o'rnatishdan iborat. Korporativ boshqaruvning murakkab va ziddiyatli tabiatini e'tiborga olib, mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari uchun korporativ hamjamiyatining har xil qatnashchilari bilan uning faoliyatini boshqaruvchi turli organlari o'rtasidagi kelishuvlar va ziddiyatlarni hal etish mexanizmini shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy korporatsiyalarda aksiyadorlar aksiyalarni xarid qilib, mablag'larini korporatsiya ixtiyoriga topshiradigan va ushbu sarmoyadan foydalanish samaradorligi bilan

bog'liq xatarni o'z zimmasiga oladigan vaziyat yuzaga keldi. Ayni paytda, aksiyadorlar kompaniya faoliyatini joriy boshqarish vazifalarini hal etishda qatnashmaydilar va tashqi tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda uni namoyon qilmaydilar. Korporatsiyani joriy boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul qilish huquqi aksiyadorlar tomonidan yollanma menejerlarga topshiriladi.

4. Korporativ boshqaruvning mexanizmlari davlat tartibga solish organlari, sud organlari va ishbilarmonlar doiralarida ishlab chiqilgan ma'lum bir qoida, me'yor va andozalari asosi va doirasida ishlaydi. Ushbu qoida, me'yor va andozalarning majmuasi korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlar qonunlari korporatsiya maqomini muayyan tashkiliy tuzilmaga, huquq va majburiyatlarga ega va haqiqiy mavjud bo'lgan yuridik shaxs sifatida belgilab bir vaqtning o'zida korporativ hamjamiyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishning asosiy me'yorlari va mexanizmlarini ham belgilab beradi.

5. Kompaniya menejerlari va uning egalari (aksiyadorlar, sarmoyadorlar), shuningdek, boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kompaniyaning samarali faoliyatini taminlashga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar tizimi korporativ boshqaruv tizimi hisoblanadi. Xususan, korporativ boshqaruv - asosiy manfaatdor shaxslarning kompaniyani samarali boshqarishni tashkil etishdagi manfaatlari birlashtiriladigan tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmui bo'lib qoladi.

6. Korxonada samaradorligini yaxshilash, shuningdek sof foyda miqdorini oshirish uchun davr harajatlari, ma'muriy harajatlar singari harajatlarni kamaytirish hamda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida asosiy fondlarni yangilash, texnologik qayta jihozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7. Korxonaning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi javobgarligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanishi lozim. Bunda quyidagi yo'nalishlar ahamiyatlidir:

- ustav fondini oshirish;

- qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish;
- korxonada aksiyalarining investorlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini takomillashtirish;
- jamiyat aksiyadorlari, kuzatuv kengashi a‘zolari va ijrochi organlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan ichki korporativ munosabatlarni shakllantirish;
- aksionerlik jamiyati boshqaruv jarayonidagi ma‘lumotlarning ochiqlik darajasini, shuningdek aksionerlik jamiyati boshqaruv organlarining hissadorlar yoki aksiyadorlar oldida muntazam ravishda hisobot berib borishini ta‘minlash;
- aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv va boshqaruv funksiyalarga jaratilishini quydagicha ko‘rishimiz mumkin.
- o‘z mulkining joriy boshqaruvida shaxsan qatnashishdan o‘z hohishi bilan voz kechgan mulkdorlar(aksiyadorlar);
- jamiyat mulkiga egalik qilmaydigan va begona mulkni boshqaradigan yonlanma menejerlar;

8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatida dividend siyosatini ishlab chiqish korporativ boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi mulkdorlar tomonidan foydaning joriy iste‘mol qilinishi va uning kelajakdagi o‘sishi o‘rtasida optimal mutanosiblikni o‘rnatishdan iborat. Dividendlar sohasidagi siyosatni kuzatuv kengashi shakllantiradi. Shuni nazarda tutish lozimki, aksiyalarni xarid qilishdan asosiy maqsad dividendlar olish hisoblanadi.

9. Keyingi yillardagi milliy korxonalarni isloh etish natijasida korporativ sektor iqtisodiyotidagi umumiy muammolar bevosita mulkdorlar, aksiyadorlar va menejerlar o‘rtasidagi manfaatlar qaramaqarshiliklarini o‘zida ifodalovchi korporativ boshqaruv tizimidagi mavjud muammolarga ham bevosita bog‘liq bo‘lmoqda. Buni hususiy lashtirishdan so‘nggi biznes muhitida “xo‘jalik demokratiyasi”ni shakllantirish bilan bog‘liq iqtisodiy va huquqiy hamda ijtimoiy muammolar ta‘sirida hamon mahalliy aksiyadorlik korxonalarida yuqori korporativ boshqaruvni shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin.

10. Bizning fikrimizcha, hozirgi sharoitda aksariyat yirik aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlanib borayotgan bo'lsada, ularni jamiyat hayotiagi ta'sirchanligi sezilarli emasdir. Korporativ boshqaruvni rivojlantirish orqali nafaqat kompaniya nufuzi ko'tarilishiga erishiladi, balki, uning aksiyadorlari, menejerlari va mehnat jamoasi a'zolari o'rtasidagi ixtiloflar ham bartaraf etiladi, sog'lom muhitning vujudga kelishi ular taraqqiyotining bosh omiliga aylanadi.

11. Korporativ boshqaruvning kompleks mexanizmi: korporativ strategiya, korporativ boshqaruvni, moliyaviy va axborot shaffofligi, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa qimmatli qog'ozlar egalari huquqlarini himoya qilish tizimining mavjudligi kabi tarkibiy elementlarni o'z ichiga olib, ularning har biri korporativ boshqaruvning samaradorligi uchun ahamiyatlidir.

12. Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlari korporativ mulkchilik sharoitida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari tomonidan strategik boshqaruv tizimini shakllantirishga shart-sharoit yaratmoqda. Lekin, zamonaviy sharoitlarda jamoa a'zolari, menejerlar, tarkibiy tuzilmalar hamjihatligi va kelishuvini tartibga soluvchi qoida va me'yorlarni o'zida mujassamlashtiruvchi korporativ boshqaruvni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni echimini topish ayni zarurat hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ-xuquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., O'zbekiston, 2003. - B.16-18.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.-T., Adolat, 1996. - B.76-82.
- 1.3. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil. 26 apr. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. -2003. -№5-6. -B.64-126.
- 1.4. Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 25 aprel // O'zbekistonning Yangi qonunlari. Son-13, T.: Adolat, 1996. -B.39.
- 1.5. Chet el investitsiyalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Xalq so'zi, 1998 yil 20 may.
- 1.6. Investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Xalq so'zi, 1999 yil 12 yanvar.
- 1.7. Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Xalq so'zi, 2001 yil 19 sentyabr.
- 1.8. Davlat tasarrufidagi korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish va qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. №PF-1164. 1995 yil. 1 iyul // O'zbekiston Respublikasining axborotnomasi. -1995. -№8. -B.78-85.
- 1.9. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-4053-sonli. 2008 yil 18 noyabr.
- 1.10. Davlat korxonalarini ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 15 iyun 221-sonli Qarori // Xalq so'zi. 1995 yil 16 iyun.
- 1.11. Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 22 avgust 361- sonli Qarori // Xalq so'zi. 1998 yil 25 avgust.
- 1.12. 2003-2004 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 17 apr. Qarori // Xalq so'zi. 2003 yil 17 aprel.



1.13. Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 apr. Qarori // Xalq so'zi. 2003 yil 20 aprel.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 4720-sonli Farmoni. 2015 yil 24aprel'.

1.15. "O'zpxatasanoat" aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4761 sonli Farmoni. 2015 yil 27 oktyabr.

1.16. Islom Karimov. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish. 19-jild. 2010 yil.

1.17. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir. – T.:O'zbekiston, 2015, 304 b.

1.18. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.:O'zbekiston, 2009, -40 b.

1.19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010. -56 b.

1.20. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O'zbekiston, 2011. -48 b.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

2.1 Абдуллаев Ё., Шохаъзамий Ш. Қимматли қоғозлар. -Т.: Мехнат, 1997. -20 б.

2.2 Абдуразақов Ш., Корпоратив бошқарувни такомиллаштирайлик // Р. Биржа. -2006. №38.-Б.9.

2.2. Агрин Г., Ритчи Д.Ж., Моди К. Организация производства и управления в амерканских корпорациях / Пер. с англ. -М.: ЮНИТИ, 2004. - 245 с.

2.3. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. - СПб: Издательство "Питер", 2012. -416 с.

2.4. Бандурин А.В. Деятельность корпораций. М.: БУКВИЦА, 1999. -560 с.

2.5. Беркинов Б., Корпоратив бошқарув: мақсад ва вазифалар // Р. Халқ сўзи.-2004. №102.-Б.2.

- 2.6. Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). -Т.: Изд-во Нац.б-ки Узбекистана, 2005. -132 с.
- 2.7. Бутабоев М., Корпоративное управление национальный рейтинг // Ж. Бозор, пул ва кредит.-2006. №3. -Б.22-26.
- 2.8. Вахабов А., Иброҳимов А. Молиявий таҳлил. Дарслик. Т.: Шарқ, 2002. -224 б.
- 2.9. Гречникова И.Н. Менеджмент: Учеб. - М.: ЮНИТИ, 2000. -485 с.
- 2.10. Гулямов С.С.. Развитие законодательство об акционерных обществах в системе корпоративных отношений и проблемы его совершенствования: Автореф. дис. на соискание степени доктора юридических наук. - Т.: ТГЮИ, 2005. -43 с.
- 2.11. Дафт Р.Л. Менеджмент. -СПб.: Питер, 2001. -832 с.
- 2.12. Дости А., Чен И., Надеждина М., Ўзбекистонда корпоратив бошқарув: муаммолар ва ҳал этиш йўллари // Ж. Экон. обозрение.- 2003.- №2.-Б.60-61.
- 2.13. Зайнутдинов Ш.Н., Рахимова Д.Н. Корпоратив бошқарув асослари. - Т.: Академия, 2007. -188 б.
- 2.14. Зайнутдинов Ш.Н., Муркаев И.У., Ларина С.А. Основы менеджмента. -Т.: Ўқитувчи, 1996. -177 с.
- 2.15. Карнаухов С. Эффективность корпоративных структур // Ж. Риск. - 2004. -№1-2. С.4.
- 2.16. Ла Порта Р., Лопес-де-Силанес Ф., Шлейфер А. Корпоративная собственность в различных странах мира // Российский журнал менеджмента, 2005. -№ 3, -148 с.
- 2.17. Мансуров О., Республикада корпоратив бошқарувнинг шаклланиши ва ривожланиш хусусиятлари // Ж. Бозор, пул ва кредит.-2006. -№5. -Б.26-28.
- 2.18. Мансуров О.М. Бозор иқтисодиёти шароитида корпоратив бошқаруви. –Т.: Молия, 2008. -142 б.
- 2.19. Мескон М.Х., Альберт М., Хедору Ф. Основы менеджмента. - М.: Дело, 2000. -564 с.
- 2.20. Мирзаев А. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув // Ж. Бозор, пул ва кредит. -2005. -№3. -Б.66-67.
- 2.21. Мирзакузиев З., Законодательные основы корпоративного управления // Ж. Бозор, пул ва кредит.-2004. №3. -Б.65-66.
- 2.22. Отахонов Ф.Х. Акционерлик жамиятлари: Саволлар ва жавоблар. - Т.: Адолат, 1996. -172 б.

- 2.23. Проблемы внедрения корпоративного управления в Узбекистане. Т.: Центр экономических исследований, 2006. -С.26.
- 2.24. Радыгин А.Д., Энтов Р.М., Межераупс И.В. Особенности формирования национальной модели корпоративного управления. - М.: ИЭПП, 2003. -86 с.
- 2.25. Рудник Н.Б., Семеникова Е.В. Рынок корпоративного контроля: слияния, жесткие поглощения и выкупки долговым финансированием. - М.: Финансы и статистика, 2004. -21 с.
- 2.26. Сабирджанова Д., Туляганова Ш., Совершенствование корпоративного управления // Ж. Бозор, пул ва кредит.-2004. №3. - Б.62-64.
- 2.27. Султонова Л.Ш. Рынок ценных бумаг и особенности его становления в странах с переходной экономикой.: Дисс. канд.наук. -Т.: 2000. -178 с.
- 2.28 Суюнов Д.Х. Бизнес мухитнинг ривожланишига корпоратив бошқарув механизмини жорий этишни такомиллаштириш.: Иқтисод фанлари доктори. ...дисс. автореф.-Т.: 2008. -45 б.
- 2.29. Суюнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. - Т.: Академия, 2007. -319 б.
- 2.30. Храброва И.А. Корпоративное управление: вопросы интеграции. М.:2000. -198 с.
- 2.31. Ханкельдиева Г.Ш. Совершенствование организационной структуры и стратегии в корпоративном управлении (на примере машиностроительных предприятий республики Узбекистан).: Автореф. Дис. ... канд. экон. наук. -Т.: 2002. -22 с.
- 2.32. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: Автореф. дис. на соискание степени доктора экономических наук. -Т.: 2008. 38 с.
- 2.33. Хашимов А.А. Ўзбекистонда интеграциялашган корпоратив тузилмаларни бошқариш методологиясини такомиллаштириш.: Иқтисод фанлари доктори....дисс.иши.-Т.: 2007. -338 б.
- 2.34. Хессель, Мейерс. Корпоративное управление. Владельцы, директора и наемные работники акционерного общества. -М.: Партнер, 2004. -49 с.
- 2.35. Чиркова Е.В. Действуют ли менеджеры в интересах акционеров. -М.: ЗАО Олимп-Бизнес, 2005. -183 с.
- 2.36. Чуб Б.А. Корпоративное управление. Уч. пособие для вузов. - М.: Прогресс, 2004. -204 с.

2.37. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. -Т.: Ўқитувчи, 2001. -704 б.

2.38. Шерматов Ғ.Ғ. Акциядорлик жамиятларида бошқарувни ташкил қилиш ва уни такомиллаштириш муаммолари.: Иқтисод фанлари номзоди. ... дисс. автореф. - Т.: 2004. -24 б.

2.39. Шихвердиев А.П. Корпоративное управление. Уч. пособие для вузов. - К.:АГСУГРК, 2003. -90 с.

2.40. Юлдашев Ш.Ғ., Суюнов Д.Х., Хамидулин М.Б. Акционерлик жамиятларида корпоратив бошқарув. Ўқув кўлланма. –Т.: Академия, 2005. - 138 б.

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

3.1. <http://www.norma.uz>

3.2. <http://www.soliq.uz>

3.3. <http://www.paxta.uz>

3.4. <http://www.mygov.uz>

3.5. <http://www.mv.uz>

**"O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda 2013–2015-yillarda ishlovchilar soni va hisoblangan ish xaqining**

**TAXLILI**

ming so'm

№	Bo'lim nomlari	2013			2014			2015		
		Ishchilar soni	Hisoblangan ish xaqi	O'rtacha bir oylik ish xaqi	Ishchilar soni	Hisoblangan ish xaqi	O'rtacha bir oylik ish xaqi	Ishchilar soni	hisoblangan ish xaqi	O'rtacha bir oylik ish xaqi
	AUP	1645	173,8	880,6	1618	202,1	104,0	1602	218,0	1134,1
2	Tayyorlov	407	226,9	464,5	394	266,1	562,8	318	228,1	597,7
3	TMB va mahsulot yuklov-chilar	878	491,2	466,2	808	534,1	550,8	731	518,6	591,1
4	TNB	433	231,3	445,1	458	293,5	534,0	432	298,7	576,1
5	Yordamchi xizmatchilar	1720	104,1	504,6	1889	137,3	605,9	2175	190,5	730,1
6	Ma'muriy xo'jalik	1752	807,4	384,0	1547	857,5	461,9	1436	932,2	540,9
7	Ishlab chiqarish birgadalari	9817	578,6	491,1	9868	676,1	571,0	9321	739,6	661,3
8	Qurilish	655	307,2	390,8	676	422,0	520,2	490	310,6	528,2
9	Ta'mirlash birgadalari	2787	153,6	459,5	2832	176,4	519,3	2563	189,0	614,8
	<b>Jami:</b>	<b>20094</b>			<b>20090</b>			<b>19068</b>		

**"O'zpaxtasanoat" AJ tizimidagi paxta qabul qilish maskanlaridan paxta tozalash korxonasiga paxta xom-ashyosini tashish bo'yicha 2016 yil xosili uchun**

**Tavsiyaviy tarif**

t/r	O'rtacha masofa, km	1 tn/km uchun tavsiyaviy tariflar, so'mda					
		QQS siz		QQS bilan		Yoqilg'isiz	
		Yoqilg'i turi					
		Dizel	Metan gaz	Dizel	Metan gaz	QQS siz	QQS bilan
1	20 km gacha	876	507	1052	609	349	419
2	21-50 km gacha	835	484	1002	580	333	399
3	51-100 km gacha	797	461	956	553	318	381
4	101 km dan yuqori	729	423	875	507	290	349
	o'rtacha hisobda	809	469	971	562	323	387

**"O'z paxtasanoat" AJ korxonalarida soliq va soliq stafkalari to'g'risida  
MA'LUMOT**

Soliq va ajratma turi	Soliq stavkasi			Soliq solinadigan baza
	Paxta tozalash zavodida	Hududiy filialda	Ta'minot bazada	
<b>Soliqalar:</b>				
KKS*	0,2	0,2		Sotilgan paxta momig'i (respublika korxonalarida), texnik chigit, ulyuk va pux maxsulotlari qiymatidan
Foyda solig'i	0,08	0,08		Jami daromaddan xarajatlar ayrilgandan keyin qolgan summa (balans foyda)dan
Daromad solig'i	4,5-16-22%	4,5-16-22%		Hisoblangan ish xaqidan
Suv solig'i	1 kub metr-29,8 so'm	1 kub metr-29,8 so'm		Foydalanilgan suv xajmidan
Mulk solig'i	0,035	0,035		Mol-mulk qiymatidan
Er solig'i	1 ga	1 ga		Hududlar bo'yicha berilgan stavkalar asosida
Infrastruktura	0,08	0,08		Balans foydadan foyda solig'i ayrilgandan keyin qoldiq summadan
Yagona soliq			0,05	Oborotdan
<b>Ajratmalar:</b>				
Pensiya jamg'armasi:	0,065	0,065	0,065	Hisoblangan ish xaqidan
	0,25	0,25	0,25	Ish xaqi fondidan
	0,016	0,016		Sotilganmahsulot QQS siz qiymatidan
Yo'l jamg'armasi	0,014	0,014		Sotilganmahsulot QQS siz qiymatidan
Maktab jamg'armasi	0,005	0,005		Sotilganmahsulot QQS siz qiymatidan